



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 8-fevral, № 28 (8923)


Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI YAPONIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-fevral kuni Yaponiya Bosh vazirining maxsus maslahatchisi Akixisa Nagasima boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ko'p qirrali hamkorlik va amaliy sheriklikni kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Maxsus maslahatchi Akixisa Nagasima davlatimiz rahbariga Yaponiya Bosh vaziri Sigeru Isibaning salomi va shaxsiy maktubini yetkazdi.

Yaponiya O'zbekistonda qonun ustuvorligiga asoslangan erkin va ochiq xalqaro hamkorlikni ta'minlash va mustahkamlashda o'zining ishonchli va uzoq muddatli strategik sherigini ko'rayotgani ta'kidlandi.

Yaponiya hukumati iqtisodiy va innovatsion hamkorlik, energetika, sanoat, infratuzilma va ijtimoiy sohalaridagi kooperatsiya, jadal ta'lim va madaniy almashinuvlar, turizm va mehnat migratsiyasi dasturlari, shuningdek, samarali mintaqaviy hamkorlik kabi keng ko'lami yo'nalishlarda ikki tomonlama munosabatlarni jadal rivojlanib borayotganini yuksak baholayotgani alohida qayd etildi.

2024-yilda mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 35 foizga oshdi. Yaponiyaning yetakchi kompaniya va banklari bilan loyihalar portfli 12 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda. O'zbekistonda 100 ga yaqin qo'shma korxonalar va tashkilotlar, jumladan, O'zbekiston – Yaponiya markazi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston yetakchisi oliy va yuqori darajadagi faol muloqotlar va o'zaro tashriflarni davom ettirish muhimligini qayd etdi. Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy-texnik sohalaridagi, shu jumladan, Yaponiya hukumatining Taraqqiyotga ko'maklashish dasturi doirasidagi hamkorlikning kun tartibi sarmazmun ekani mamnuvniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti Yaponiya hukumati ga joriy yil aprel oyida Osaka shahrida boshlanadigan "Ekspo" butunjahon ko'rgazmasini muvaffaqiyatli o'tkazishni tiladi.

Bo'lajak "Markaziy Osiyo + Yaponiya" formatidagi birinchi sammitga tayyorgarlik doirasida mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi.

O'z.A.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

HUDUDLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI YANADA RIVOJLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 7-fevral kuni hududlarda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Uch yil oldin bu borada katta dastur qilingani bugun natijasini beryapti. Servis sohasida qo'shimcha 1,5 million aholi doimiy daromadga ega bo'ldi. Xizmatlar miqdori 2018-yildagi 19 milliard dollardan 65 milliard dollarga oshdi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, turizm, aviatsiya, ta'lim va tibbiyot sohalarida "katta sakrash" bo'ldi.

Bular yaxshi, albatta. Lekin imkoniyatlar bundan juda ko'p. Ularni hayotga tatbiq etishda hudud va sohalarida yaxillik yo'q. Masalan, Xorazmga 6 million turist jalb etish reja qilingan. Lekin buning uchun samolyot va poyezdlar qatnovi yetarli emas. Tibbiyot, aviatsiya va energetikada xususiy sektor ishtirokidagi loyihalar 20 milliard dollardan oshgan. Ammo ichimlik suvi, kanalizatsiya va yo'l qurilishida bunday loyihalar deyarli yo'q.

Yig'ilishda shu kabi muammolar tahlil qilinib, hudud va sohalaridagi ulkan imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi. So'nggi yetti yilda aholi daromadi va to'lov qobiliyati 2 karra o'sgani natijasida xizmatlar halali ko'p. Bu yil yana 29 ta davlat xizmati xususiy sektorga o'tkazilishi aytiladi. Yer uchastkalari va davlat mulkini ijaraga olish yoki xususiy lashtirish bo'yicha ochiq, shaffof, manfaatlilik shartlarni ishlab chiqish hamda tadbirkorlarga e'lon qilish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda imzolangan hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimiga oid Farmoni bu borada katta imkoniyat yaratdi. Unga ko'ra, bu yil 1-martdan boshlab, 10 ming kvadratgacha bo'lgan va 6 oy davomida sotilmagan tumanlardagi davlat obyektlari tadbirkorlarga 10 yilga to'g'ridan-to'g'ri ijaraga beriladi. To'rt yil davomida ijaraga haqi vaqtida to'lansa, bu joy tadbirkorga xususiy lashtirib beriladi. Yoshlarni IT va chet tilga o'qitib, xalqaro sertifikat beradigan tadbirkorlar birinchi yil ijaraga to'lamaydi.

Davlatimiz rahbari masofaviy xizmatlar ekspordini yangi bosqichga ko'tarish zarurligini ta'kidladi. Buning uchun xorijiy davlatlardagi xizmatlar bozori va talablarni o'rganib, shunga mos mutaxassislar tayyorlash vazifasi qo'yildi. Bu yil kreativ iqtisodiyotdagi startap loyihalar uchun 50 million dollar ajratilgan. Bu orqali yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, chet el kompaniyalarida ishlayotgan yurtdoshlarimizni jalb etish maqsad qilingan.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASINI "ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL IQTISODIYOT" YILIDA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RSIDA

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida va Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilangan vazifalarning ijrosini og'ishmay tashkil etish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi to'g'risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarining uyg'un "yashil transformatsiya"ni amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamliligini ta'minlash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o'sishning yangi "yashil rivojlanish" modeliga o'tish maqsadida:

1. "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib quyidagilar belgilansin:

mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;

aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash;

o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko'paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash;

"yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish;

respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik "yashil energiya" stansiyalarini barpo etish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmoq'ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish;

iqtsodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotda "uglerod izi"ni kamaytirish;

ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan hududlar va tarmoqlararo muvofiqlashtiruvni ta'minlash.

Belgilansinki, ustuvor yondashuvlar resurslardan tejamlilik bilan foydalanishni ko'zda tutuvchi iqtisodiy rivojlanish modeliga o'tish orqali 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini kamida 6 foiz va uning hajmini 200 milliard AQSh dollariga yetkazish, inflyatsiyani 5 foiz, byudjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz darajasida saqlash, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishishga asos bo'ladi.

(Davomi 2, 3-betlarda).

Buyuk shoir va mutafakkir, xalqparvar davlat arbobi Mir Alisher Navoiyning bebaho merosi el-yurtimiz ma'naviy hayoti va dunyo adabiyoti rivojida alohida muhim o'rin tutadi. U zotning muborak siymosi umrini Vatan va xalq saodati uchun baxsh etishni hayot maslagi deb biladigan fidoyi shaxslarni tarbiyalashda barcha davrlar uchun yuksak ideal namunasi bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda ulug' ajdodimizning hayoti va ijodini o'rganish va jahon miqyosida keng targ'ib qilish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirildi, jumladan, xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi, shoir asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish va nashr etish ishlari davom ettirilmog'da.

Buyuk gumanist, adolat va ezigulik kuychisi, ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot homiysi Alisher Navoiyning umumbashariy ahamiyatga ega o'lmas merosini yanada teran tadqiq etish,

«ALISHER NAVOIY VA SHARQ RENESSANSI» IV XALQARO SIMPOZIUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli simpozium qatnashchilari! Muhtaram mehmonlar!

Avvalo, siz, azizlarni "Alisher Navoiy va Sharq Rennsansi" IV xalqaro simpoziumining ochilishi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Qadimiy O'zbekiston zaminida, go'zal Zarafshon vohasida Sharq Uyg'onish davrining yorqin namoyandasi, buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy nomi bilan ataladigan navqiron shaharda ilk bor o'tkazilayotgan ushbu forumning nufuzi dunyo miqyosida tobora ortib bormog'da. Bu galdi anjumanda Osiyo, Afrika, Yevropa va Amerika qit'alarini mamlakatlaridan ko'plab taniqli olim va tadqiqotchilar ishtirok etayotgani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Mazkur anjuman Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilingan joriy yilda, ulug' ajdodimizning 584-yillik tavallud sanasi keng nishonlanayotgan kunlarda o'tayotgani uning fayzi va shukhlini yanada oshirmog'da.

Qadrii do'stlar!

Jahon adabiyoti va tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan Alisher Navoiyning serqirra ijtimoiy-siyosiy, ijodiy, ilmiy-ma'rifiy faoliyati, boy adabiy-badiiy

merosi asrlar davomida yuksak insonparvarlik, Vatanga sadoqat, adolat va ezigulik timsoli sifatida hamisha jahon ahlining e'tiborini tortib kelmoqda.

Hazrat Mir Alisher Navoiy o'ta murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy g'oyalarni baland ko'tarib maydonga chiqqani, o'zbek adabiy tiliga asos solib, uning o'lmas ruhi, qudrati va latofatini har tomonlama isbotlab bergani chinakam ma'naviy jasorat namunasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Bu mumtoz siymo jahon adabiyoti mezonlariga, zamon va tarix sinovlariga to'la javob beradigan durdona asarlar yaratib, nafaqat o'zbek, balki barcha turkiy adabiyotlar rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ham yuksak hayrat va tahsinga munosibdir.

Alisher Navoiyning bebaho ijodiy merosi haqli ravishda jahon adabiyoti daholarining buyuk asarlari bilan bir qatorda turishi bizga cheksiz g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Ayniqsa, mutafakkir ajdodimizning turli xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash, bashariyatning yorug' kelajagini birgalikda qurishga chorlaydigan g'oya va qarashlarining

ahamiyati hozirgi tahlikali davrda tobora ortib bormog'da.

Bugungi kunda biz Yangi O'zbekistonda Uchinchi Rennsansi barpo etish jarayonida Alisher Navoiy asarlarini o'zimiz uchun bitmas-tuganmas kulg'g'ayrat va ilhom manbai deb bilimiz. Shu bois bu noyob ma'naviy boylikni chuqur o'rganish va targ'ib etish doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Fursatdan foydalanib, shu borada yurtimiz olimlari bilan faol hamkorlik qilib kelayotgan siz, azizlarga, barcha ilm-fan namoyandalarga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Ushbu anjumanga puxta tayyorgarlik ko'rgan, Alisher Navoiyning tavallud ayyomini katta shodu xurramilik va bunyodkorlik ishlari bilan kutib olayotgan Navoiy shahri va viloyati ahliga, mutasaddi rahbarlarga ham samimiy tashakkur izhor etaman.

Sizlarni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog'liq, ilmiy va ijodiy faoliyattingizda ulkan yutuq va omadlar, anjuman ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

BUYUK SHOIR VA MUTAFAKKIR MIR ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSINI YURTIMIZ VA JAHON MIQYOSIDA KENG TARG'IB QILISH HAMDA NAVOIY VILOYATIDA "ALISHER NAVOIY YILI"NI YUQORI DARAJADA O'TKAZISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Buyuk shoir va mutafakkir, xalqparvar davlat arbobi Mir Alisher Navoiyning bebaho merosi el-yurtimiz ma'naviy hayoti va dunyo adabiyoti rivojida alohida muhim o'rin tutadi. U zotning muborak siymosi umrini Vatan va xalq saodati uchun baxsh etishni hayot maslagi deb biladigan fidoyi shaxslarni tarbiyalashda barcha davrlar uchun yuksak ideal namunasi bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda ulug' ajdodimizning hayoti va ijodini o'rganish va jahon miqyosida keng targ'ib qilish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirildi, jumladan, xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi, shoir asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish va nashr etish ishlari davom ettirilmog'da.

Buyuk gumanist, adolat va ezigulik kuychisi, ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot homiysi Alisher Navoiyning umumbashariy ahamiyatga ega o'lmas merosini yanada teran tadqiq etish,

xalqimiz va jahon ahlini bu ulkan boylikdan har tomonlama bahramand etish maqsadida:

1. Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi, Navoiy viloyati hokimligi hamda keng jamoatchilikning Alisher Navoiy tavalludining 584-yilligi munosabati bilan Navoiy viloyatida 2025-yilni "Alisher Navoiy yili" deb nomlash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Alisher Navoiy ijodiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili"ni yuqori darajada o'tkazish bo'yicha respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Respublika komissiyasi)ning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar Respublika komissiyasining asosiy vazifalari etib belgilansin:

Alisher Navoiy merosini o'rganish ishlari yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida yurtimiz va chet ellarda tizimli asosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e'lon qilish, ushbu mavzuda yangi ilmiy, badiiy va ommabop asarlar yaratish, xorijdagi navoiyshunos olim hamda ijodkorlarning asarlarini o'zbek tilida nashr etish choralarini ko'rish;

Navoiy siymosi tasvirlangan, uning shaxsi, ilmiy-ma'rifiy merosi, davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga bag'ishlangan ko'rgazmali axborot vositalarini tayyorlash, mediamahsulotlar va audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng yoritish hamda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishni ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi elchixonalari, o'zbek milliy madaniy

markazlari, vatandoshlar jamiyatlarida Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati, insonparvarlik g'oyalarni keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida ilmiy anjumanlar hamda davra suhbatlari tashkil etish;

mazkur jarayonda vazirlik va idoralar, ilmiy va ijodiy, ma'rifiy muassasalar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash;

ushbu qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifati bajarilishini ta'minlash, chora-tadbirlarni moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlarni Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida, ijrochilarning byudjetdan tashqari mablag'lari, xalqaro grantlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishini tashkil etish, mablag'larning taqsimlanishi va sarflanishini nazorat qilish.

(Davomi 3-betda).

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI “ATROF-MUHITNI ASRASH VA
«YASHIL IQTISODIYOT» YILIDA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

2. **2025-yilda “yashil iqtisodiyot”** tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish, iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish borasida:

Parij bitimining talablaridan kelib chiqib, **Oʻzbekistonning uglerod neytralligiga erishishining uzoq muddatli strategiyasi** ishlab chiqilishi;

iqlim oʻzgarishiga moslashish, “yashil texnologiya”lar transfertini inobatga olgan holda global miqyosda mamlakatimizning kelgusi **5 yilda issiqxon**a gazlarini qisqartirish boʻyicha Milliy miqyosda belgilangan **hissasi (NDC)** eʼlon qilinishi;

metan emissiyasini qisqartirish majburiyati doirasida tabiiy gaz, chiqindilar va chorvachilik sohalarida **metan emissiyasining bazaviy holati aniqlanishi**;

umumiy quvvati **4,5 GVt** boʻlgan yirik **quyosh va shamol** elektr stansiyasini ishga tushirish, quvvati **785 megavatt** boʻlgan quyosh panellarini oʻrnatish, quvvati **225 megavatt** boʻlgan **gidroelektr stansiyalarini** barpo etish orqali jami qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi elektr energiyasi ishlab chiqarishda **26 foizga** va jami generatsiya quvvatlarini tarkibidagi ulushi **40 foizga** yetkazilishi; yangi quriladigan bino-inshootlar va uy-joylar energiya samaradorligidan kelib chiqib, “Yashil bino” sertifikatini joriy etilishi taʼminlansin.

Mazkur bandning soʻzsiz, sifatli va oʻz vaqtida ijrosini taʼminlashga masʼul etib tegishincha Bosh vazir oʻrinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziri **J.Qoʻchqorov** hamda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri **A.Abduxakimov** belgilansin.

3. Energetika vazirligi (J.Mirzamaxmudov) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda:

2025-yilda **quyosh panellari** va geliokollektorlarni tuman va shaharlar kesimida oʻrnatish dasturini;

2025-2026-yillarda respublika hududlarida **mikro gidroelektr stansiyalarini qurish dasturini** Vazirlar Mahkamasiga kiritisin.

4. **“Tejamkorlik va barqarorlik” tamoyili** asosida davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni **transformatsiya qilish** va ishlab chiqarish xarajatlarini **15 – 20 foizgacha** qisqartirish maqsadida **2025-yil yakuniga qadar**:

yirik strategik korxonalar tomonidan ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillari asosida korporativ dasturlar ishlab chiqilib, kamida **5 ta** yirik sanoat korxonasida **ESG milliy hisoboti** yoʻlga qoʻyilishi va jamoatchilikka oshkor etish amaliyoti joriy etilishi;

“Oʻzbekneftgaz” AJ, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Olmaikent kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Uzbekistan Airports” AJ, “Uzbekistan Airways” AJ tomonidan **ESG reytingi olinishi**;

Samarqand va Fargʻona viloyatlarida tajriba-sinov tariqasida **ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat zonalarini** tashkil etilishi taʼminlansin.

Mazkur bandning soʻzsiz, sifatli va oʻz vaqtida ijrosini taʼminlashga masʼul etib tegishincha Bosh vazir oʻrinbosarlari **J.Qoʻchqorov, J.Xodjayev** va ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri **A.Abduxakimov** belgilansin.

5. **2025-yilda** mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, koʻchalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish borasida:

aholi uchun barpo etilayotgan piyodalar va alohida velosiped yoʻlaklari boʻyida daraxtlar va oʻsimliklarni ekish orqali **“Soyali sayr koʻchalari”** tarmoqi yaratilishi, sohil va daryo boʻylarida **80 ta** infratuzilma obyekt va **110 kilometr**dan ortiq **sogʻlomalashtirish yoʻlaklari** qurilishi;

yomgʻir va oqova suvlardan samarali foydalanish, mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali suv orqish tizimini joriy etish natijasida yashillik darajasi oshirilishi;

“Yashil makon” umummilliy loyihasi va **“Mening bogʻim” loyihasi** doirasida **200 million** tup daraxt hamda butalar ekilishi, “yashil bogʻlar” va “yashil jamoat parklari”da **quyosh panellari yordamida quvvatlanuvchi yoritqichlardan** foydalanilishi;

Orol dengizi tubida **100 ming gektar “yashil maydon”** barpo etilishi va Orolboʻyi mintaqasidagi oʻrmonzorlar **2,1 million gektarga** yetkazilishi;

oʻrmon bilan qoplangan maydonlar **4,1 million gektarga** yetkazilishi va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar **14,5 foizgacha** kengaytirilishi hamda ularning ekoturizm, koʻchatchilik va dorivorchilik yoʻnalishlaridagi **foydalanilmayotgan zaxiralari aniqlanib**, ularning imkoniyatlaridan toʻliq foydalanilishi va aholining daromadlari oshirilishi;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarining tanlangan hududlarida **shoʻr va suvsizlikka** chidamli oʻsimliklar (galofit) bogʻlari tashkil etilishi;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Buxoro, Surxondaryo, Jizzax, Fargʻona va Toshkent viloyatlarida davlat “in-vitro” laboratoriyalari tashkil etilishi, shuningdek, xususiy “in-vitro” laboratoriyalarini barpo etishga tadbirkorlik subyektlariga kreditlarni ajratish uchun xalqaro moliya institutlaridan kamida **30 million AQSh dollari** miqdorida mablagʻlar jalb etilishi;

jamoatchilik, ekofaollar va biznes vakillarining **tabiatni muhofaza qilish boʻyicha tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash** akseleratsiya tizimi joriy etilishi taʼminlansin.

Mazkur bandning soʻzsiz, sifatli va oʻz vaqtida ijrosini taʼminlashga masʼul etib tegishincha Bosh vazir oʻrinbosari **J.Xodjayev**, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri **A.Abduxakimov**, qishloq xoʻjaligi vaziri **I.Abduraxmonov**, iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi oʻrinbosari **I.Norqulov**, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

6. **2025-yilda** aholining **salamatligini yaxshilash, ekologik** turmush tarzini shakllantirish va **inson salohiyatini roʻyobga** chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida:

a) aholining kundalik **hayotiga ekologik tamoyillarni singdirish** orqali mamlakatimizda **“Ekofaal fuqaro”** hayot tarzini keng targʻib qilishga qaratilgan **“Bir million yashil oila” umummilliy harakati** yoʻlga qoʻyilsin va aholi orasida targʻib qilish ishlari tashkil etilsin. Bunda uning **asosiy tamoyillari** etib quyidagilar belgilansin:

aholi orasida **sogʻlom turmush tarzi**, xususan, **tibbiy madaniyatni** oshirish, **sogʻlom ovqatlanish**, kunlik **yurish va yugurishni targʻib qilish**;

“yashil transportda”, shu jumladan, **velosipedda** harakatlanishni ragʻbatlantirish;

plastik mahsulotlardan foydalanishni kamaytirish;

oziq-ovqat isrofgarchiligining oldini olish;

suv, gaz va elektr energiyasi resurslaridan oqilona foydalanish;

chiqindilarni **turlariga qarab saralashni** yoʻlga qoʻyish;

b) tibbiyotning birlamchi boʻgʻinida quyidagilarni nazarda tutuvchi **transformatsiya bosqichma-bosqich** amalga oshirilsin:

oilaviy poliklinikalar, oilaviy shifokorlik punktlari va mahalla tibbiyot punktlarida aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini koʻrsatishning samarali tizimini joriy etish;

koʻp tarmoqli markaziy poliklinikalar faoliyatini markaziy shifoxonalarning maslahat diagnostika poliklinikasi sifatida yoʻlga qoʻyish;

markazlashgan laboratoriyalar tashkil etish, shifokor **qabuliga navbatni toʻliq elektron** shakliga oʻtkazish, shuningdek, davlat tomonidan sanitariya-gigiyena normalariga rioya etilishi ustidan nazorat kuchaytirilgan holda stomatologiya xizmatini autsorsing asosida **xususiy sektorga berish**;

tibbiyot xodimlarining **malakasini** oshirish, tibbiyot xodimlari mehnat **samaradorligini baholash** koʻrsatkichlarini ishlab chiqib, samaradorlikka erishgan xodimlarning oylik maoshlariga **qoʻshimcha ustamoni** joriy etish;

viloyat darajasidagi ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam koʻrsatuvchi tibbiyot muassasalarini zarur oʻrin-joylarni (*koyka*) yaratgan holda boshqaruv, moliya va tashkiliy jihatdan zamonaviy **koʻp tarmoqli klinikalar shaklida qayta tashkil etish**;

v) inson salohiyatini yuksaltirish, taʼlim uchun qulay muhit yaratish ishlarini tashkil etish maqsadida **2025/2026 oʻquv yilidan**: Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim oʻzgarishini oʻrganish universiteti **ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi** kabi taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari boʻyicha **yetakchi oliy taʼlim tashkiloti** etib belgilansin;

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim oʻzgarishini oʻrganish universitetida **“sirkulyar iqtisodiyot”** taʼlim yoʻnalishida **kadrlar tayyorlash** amaliyoti yoʻlga qoʻyilsin;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim oʻzgarishini oʻrganish universitetiga birlashtirilgan **“yashil texnikumlar”** faoliyati yoʻlga qoʻyilsin;

tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, iqtisodiyot va moliya yoʻnalishlaridagi davlat oliy taʼlim tashkilotlarida **“Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish”** fani va oʻquv dasturlari kiritilsin;

oliy taʼlimda **grant oʻrinlarini** bosqichma-bosqich oshirish hisobiga **aniq va tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, xizmatlar, tibbiyot** kabi sohalarda davlat buyurtmasi **25 mingtaga** yetkazilsin;

“El-yurt umidi” jamgʻarmasi tomonidan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi taʼlim dasturlari asosida taʼlim olish uchun stipendiya tanloviga **20 tagacha** kvota ajratib borilsin;

respublikaning har bir tumanida (shahrida) bosqichma-bosqich **inklyuziv taʼlim talablariga javob beradigan** kamida **bittadan umumtaʼlim maktabi faoliyati** tashkil etilsin;

“Kambagʻallikdan faronovlik sari” dasturi doirasida 3,5 ming kambagʻal oilalar farzandlarini tayyorlab, oliy taʼlim tashkilotlariga belgilangan tartibda **grant asosida** qabul qilish ishlari tashkil etilsin;

g) **2025-yil 1-martga qadar** toʻgʻri inqatlanish, jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanishning nuqson talomatliligiga foydasini targʻib qilishni kuchaytirish dasturi ishlab chiqilsin;

d) **2025-yil 1-avgustga qadar** oziq-ovqat xavfsizligi sohasida xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, boshqarish va monitoring qilish maqsadida idoralararo yaxlit Milliy axborot platformasi ishlab chiqilsin.

Mazkur bandning soʻzsiz, sifatli va oʻz vaqtida ijrosini taʼminlashga masʼullar etib tegishincha sogʻliqni saqlash vaziri **A.Xudayarov**, sport vaziri **A.Ikramov**, kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vaziri **B.Zaxidov**, oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vaziri **K.Sharipov**, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri **A.Abduxakimov**, qishloq xoʻjaligi vaziri **I.Abduraxmonov** belgilansin.

7. Quyidagilar:

Sogʻliqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov, E.Adilov) **2025-yil 1-iyulga qadar** tibbiyot va farmatsevtika xodimlari faoliyatini bosqichma-bosqich **davlat roʻyxatidan oʻtkazish tizimini** aniq mexanizmlarni nazarda tutgan holda joriy etish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini kiritisin;

Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) Sogʻliqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov, E.Adilov) bilan birgalikda **2025-yil 1-noyabrga qadar** tibbiy sugʻurta mexanizmlari joriy qilinayotgan hududlarda retsept asosida beriladigan dori vositalarini **“elektron retsept” tizimi** asosida tayinlash amaliyotini yoʻlga qoʻysin.

8. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A.Abduxakimov) va Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) **2025-yil 1-iyungacha qadar “Bir million yashil oila” umummilliy harakati** doirasida quyidagilarni nazarda tutuvchi platformani ishga tushirsin:

ekologik tamoyillarni oʻzining kundalik hayotiga joriy etishda yuqori koʻrsatkichlarga erishganlarga **“Ekofaal fuqaro” maqomini** berish hamda ular uchun davlat xizmatlaridan foydalanishda **10 foiz** chegirma va davlat ulushi **50 foizdan yuqori** boʻlgan banklarda isteʼmo kreditini olishda chegirma taqdim etish;

oʻilaning barcha voyaga yetgan aʼzolari **“Ekofaal fuqaro”** maqomini olganda, ushbu oilaga **“yashil oila”** maqomini berish hamda ularga har yili ochiq tanlov orqali **14 ta elektromobil** berish;

aholining yarmi **“yashil oila”** maqomini olgan mahallalarda **“Eng toza mahalla”** va **“Eng yashil mahalla”** tanlovlarini oʻtkazish va gʻolib boʻlgan mahallalar jamgʻarmasiga mahalla aholisining takliflarini oʻrgangan holda mahallaning ichki infratuzilmasini yanada yaxshilash tadbirlarini moliyalashtirishga, xususan **yoʻllarni taʼmirlash**, energotejamkor **yoritish uskunalarini** oʻrnatish, **bolalar maydonchasini** qurish, **“yashil bogʻ”** yaratish va **oʻrindiqlar** oʻrnatish, **chiqindi yigʻish maydonchalarini** qurish, **chiqindi qutilari** va **konteynerlarini** oʻrnatishga **500 million soʻm** ajratish.

Mazkur bandning soʻzsiz, sifatli va oʻz vaqtida ijrosini taʼminlashga masʼullar etib tegishincha ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri **A.Abduxakimov**, raqamli texnologiyalar vaziri **Sh.Shermatov**, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

9. Aholi, ayniqsa, yosh avlod vakillari tomonidan sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida **2025-yil 1-maydan boshlab** quyidagilarni nazarda tutuvchi **“Toza qoʻllar” dasturi** amalga oshirilsin va aholi orasida keng targʻib qilish ishlari tashkil etilsin:

a) barcha sogʻliqni saqlash va taʼlim muassasalarida:

qoʻl yuvish joylarini zarur sanitariya-gigiyena vositalari bilan taʼminlash;

sanitariya-gigiyena xonalarning **texnik holatini yaxshilash**, yangi qurilayotgan muassasalarda ularni **binoning ichki qismida** joylashtirish;

yil davomida **birinchi navbatda qoʻl yuvish va antiseptik vositalarni** xarid qilishni nazarda tutish;

b) barcha turdagi jamoat sanitariya-gigiyena xonalari, umumiy ovqatlanish tashkilotlarini **sanitariya-gigiyena vositalari bilan** taʼminlash majburiyatini kiritish.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I.Norqulov) birinchi darajali mablagʻ taqsimlovchilarning asoslangan hisob-kitoblariga koʻra 2025-yil davomida byudjet tashkilotlarida mazkur banddagi tadbirlar uchun zarur boʻlgan hollarda **qoʻshimcha mablagʻlar** ajratilsin.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasi (B.Yusupaliyev) **bir oy muddatda** ushbu bandda nazarda tutilgan muassasalarda sanitariya-gigiyena holatini saqlash uchun vositalar ajratish boʻyicha normativlarni qayta koʻrib chiqsin va ularning amalda bajarilishi ustidan qatʼiy nazorat oʻrnatilsin.

10. Sogʻliqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O.Fozilkarimov), Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi (X.Umarova) Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi (Sh.Xidoyatov) bilan birgalikda **2025-yil 1-avgustga qadar** Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro ekspertlarini jalb etgan holda respublikaning barcha ijtimoiy soha muassasalarida, shu jumladan, umumiy ovqatlanish nuqtalari va viloyatlararo avtomobil yoʻllari boʻyidagi sanitariya-gigiyena nuqtalarida sanitariya-gigiyena tizimini yaxshilash boʻyicha dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritisin.

11. Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini nazorat qilish tizimini kuchaytirish va bu borada **sanitariya qoidalari**ni ishlab chiqib, **meʼyorlarni** yuqori standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida:

2025-yil 1-iyulga qadar Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasining **laboratoriyalarini** oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi **transyogʻlarni aniqlash uchun zarur jihozlar bilan taʼminlash** choralar koʻrilsin;

2025-yil 1-avgustga qadar oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda transyogʻlardan foydalanishning cheklangan miqdorlarini belgilash boʻyicha **sanitariya qoidalari** va **meʼyorlari** Jahon savdo tashkiloti talablariga muvofiqlashtirilishi taʼminlansin va ularga rioya etilishi ustidan qatʼiy nazorat oʻrnatilsin.

Mazkur bandning soʻzsiz, sifatli va oʻz vaqtida ijrosini taʼminlashga masʼul etib sogʻliqni saqlash vaziri **A.Xudayarov** belgilansin.

12. 2025-yilda **tabiiy resurslarni** tejash va ulardan **oqilona** foydalanish, **ekologik barqarorlikni** taʼminlash borasida:

1 ming kilometr kanallarni beton qoplamaga oʻtkazib, suv tejovchi texnologiyaga qamrovini **1,6 million gektarga** yetkazish hisobiga yiliga qoʻshimcha **2,5 milliard metr kub** suvni tejashga erishilishi;

nasos stansiyalarida **eskirgan nasos va elektr dvigatellarni zamonaviy energiya tejamkorlariga almashtirish, suv resurslari hisobini takomillashtirish** orqali nasos stansiyalarining elektr energiya isteʼmoli **300 mln kVtGacha** kamaytirilishi;

irrigatsiya va melioratsiya tizimlari obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish orqali **390 ming** gektar qishloq xoʻjaligi yer maydonlarining **suv taʼminoti yaxshilanishi**;

sarflanayotgan **suvning hisobi** va **hisoboti toʻliq yuritilishini** taʼminlash maqsadida magistr tal kanallar va muhim suv obyektlarida **suvning yagona onlayn hisobini** yuritish tizimi joriy etilishi;

1,8 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlari, **77 ta** ichimlik va oqova suv inshootlari qurilishi hamda rekonstruksiya qilinishi;

ichimlik suv tizimida maʼnan eskirgan **746 ta** nasos uskunalarini energiya tejamkorlariga almashtirilishi, hududlarda **65,2 megavatt** quvvatga ega quyosh panellari oʻrnatilishi, suv inshootlari va magistr suv tarmoqlariga **955 ta** zamonaviy **suv hisoblagichlar** oʻrnatilishi;

barcha ichimlik suv taʼminoti korxonalarida **sifat monitoringini** yuritish va maʼlumotlarni boshqarish markazlari yaratilishi;

daryolar, koʻllar va kanallarga **turli ifloslantiruvchi moddalar tashlanishi ustidan nazorat kuchaytirilishi** taʼminlansin.

Mazkur bandning soʻzsiz, sifatli va oʻz vaqtida ijrosini taʼminlashga masʼullar etib tegishincha suv xoʻjaligi vaziri **Sh.Kamrayev**, qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vaziri **Sh.Xidoyatov**, energetika vaziri **J.Mirzamaxmudov**, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri **A.Abduxakimov** belgilansin.

13. Keng jamoatchilik, xalqaro va mahalliy ekofaollar, Oʻzbekiston ekologik partiyasi va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi taklifini inobatga olgan holda:

a) **2025-yil 1-maydan boshlab Toshkent va Nukus shaharlari** hamda **viloyat markazlarida** quyidagi yoʻnalishlarda yangi loyihalarni amalga oshirish **taqzilansin**:

asbest, sement ishlab chiqarish, shlam va shlaklar;

teri-koʻnchilik, parrandachilik fabrikalari;

samaradorligi yuqori boʻlgan chang-gaz tozalash inshootlari bilan jihozlanmagan har qanday turdagi koʻmir yoqish;

qora va rangli metallurgiya zavodlari, tarkibida zaharli aralashmalar boʻlgan oyna, zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlash;

xavfli darajasining I va II sinfga mansub chiqindilarni qayta ishlab va yoqish korxonalarini;

b) **2025-yil yakuniga qadar** quyidagi **vazifalarning** bajarilishini taʼminlashga barcha kuch va resurslar safarbar etilsin:

aholini sifatli, ekologik toza va arzon yoqilgʻi bilan taʼminlangan holda **AI – 80 rumulii** avtomobil yoqilgʻisidan foydalanish va sotishni cheklash;

respublikaning barcha hududlarida joylashgan issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalariga **yoqilgʻi sifatida mazutdan foydalanishni toʻliq taq qilish**, bundan **avariyaviy yoqilgʻi sifatida** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligini **xabardor qilib**, Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda foydalanish holatlarini mustasno;

v) **2025-yil 1-noyabrga qadar** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi tomonidan plastik chiqindilarni qisqartirish boʻyicha quyidagi xalqaro tan olingan mexanizmlarni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqilsin:

plastik chiqindilarni qabul qiluvchi maxsus joylar va uskunalarini **oʻrnatish orqali yigʻib olish** va utilitatsiya qilish yoki utilitatsiya yigʻimini toʻlash;

plastik qadoqlar yoki plastik qadoqlarda mahsulot ishlab chiqaruvchi hamda import qiluvchilarga nisbatan **“taralarni qaytarish”**, fuqarolarga chiqindilarni qabul qiluvchi maxsus uskunalariga topshirilgan har bir plastik idish uchun toʻlov qilish imkoniyatini yaratish kabi majburiyatlar joriy qilish.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi (A.Abduxakimov) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I.Norqulov), Energetika vazirligi (J.Mirzamaxmudov), Invest

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I“O'ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI “ATROF-MUHITNI ASRASH VA
«YASHIL IQTISODIYOT» YILIDA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshlanishi 1, 2-betlarda).

19. 2025-yil 1-sentabrdan boshlab tadbirkorlik subyektlarini “yashil tadbirkor” sifatida e'tirof etish yuzasidan quyidagilarni nazarda tutuvchi platforma ishga tushirilgan:

a) quyidagi yo'nalishlarda belgilangan ko'rsatkichlarni bajargan tadbirkorlik subyektlariga “yashil tadbirkor” maqomini berish;

ko'kalamzorlashtirish, jumladan, korxonani “yashil belbog” bilan o'rash, sug'orish tizimlarini o'rnatish, tomchilatish, yomg'irnatish va konteynerli (qopli) sug'orish tizimini joriy qilish;

energiya tejamliligini ta'minlash, jumladan, energiya tejovchi uskunalar va texnologiyalarni joriy qilish;

korxonaning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, jumladan, ekologik huquqbuzarlik sodir etmaslik, atmosferaga tashlamalarni onlayn monitoring qilish tizimini joriy qilish;

ishlab chiqarishga sirkulyar iqtisodiyotni joriy qilish (“7R”) tamoyilini tatbiq etish;

b) “yashil tadbirkor” maqomini olgan tadbirkorlik subyektlariga quyidagi qo'llab-quvvatlash choralarini qo'llash:

“Shaffof qurilish” platformasida ustuvorlik berish;

muayyan muddat davomida ekologik tekshiruvlardan ozod etish;

xalqaro bozorlarga chiqish uchun qo'llab-quvvatlash;

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi doirasida qo'shimcha ball berish.

20. Aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni rag'batlantirish maqsadida 2025-yil 1-apreldan boshlab chiqindilar utilitatsiyasi hisobiga hamda shamol va quyosh manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun “yashil tarif”lar joriy etilsin. Bunda:

tadbirkorlik subyektlari tomonidan chiqindi va biogaz utilitatsiyasi orqali ishlab chiqariladigan hamda tashkilotlarning o'z hududlarida o'rnatgan shamol va quyosh elektr qurilmalaridan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi uchun;

aholining quyoshdan olingan va foydalanishda o'z ehtiyojidan ortirib, davlatga sotadigan elektr energiyasi uchun imtiyozli tariflar belgilanadi.

21. Iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish va iqlim o'zgarishiga moslashishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish bo'yicha:

a) 2025-yil 1-dekabr gacha qadar O'zbekiston Respublikasida “yashil moliyalashtirish” tizimini shakllantirish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqilsin;

b) 2025-yildan boshlab quyidagi manbalar hisobidan yashil va kam uglerodli rivojlanish loyihalarini qo'llab-quvvatlashga imtiyozli kredit va grant mablag'larini jalb etish choralari ko'rilsin;

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan – bosqichmabosqich 200 million yevrogacha;

Jahon bankidan – energetika sektorida metan emissiyasini kamaytirish uchun 10 million AQSh dollari;

Global yashil o'sish instituti orqali Koreya xalqaro hamkorlik agentligi texnik ko'magi doirasida – O'zbekiston – Koreya o'rtasida “yashil hamkorlik”ni kuchaytirish uchun 6,5 million AQSh dollari;

Jahon bankining “iCRAFT” loyihasi doirasida – 500 ming tonna qisqartirilgan issiqxona gazlarini sotish hisobiga 7,5 million AQSh dollari;

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatidan – sanoatni yashillashtirish va azot kislotasi ishlab chiqaruvchi korxonalarining atmosferaga chiqarayotgan zararli gazlarini qisqartirish uchun 20 million yevro;

v) 2025-yil sentabr gacha qadar “yashil iqtisodiyot” loyihalarini amalga oshirishda shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan milliy “yashil iqtisodiyot” loyihalarini baholash tartibi tatbiq etilsin;

g) 2025-yil noyabrgacha qadar qiymati 10 million AQSh dollaridan yuqori bo'lgan davlat-xususiy sheriklik asosida yangi loyihalarni “Source” xalqaro platformasiga kiritish orqali loyihalarning “yashil komponent”lari va barqaror rivojlanish maqsadlariga mosligini baholash amaliyoti yo'lga qo'yilsin;

d) Yevropa Ittifoqining texnik ko'magida Buxoro, Namangan, Nukus, Urganch shaharlari va G'uzor tumanida kam uglerodli

rivojlanish bo'yicha harakatlar rejalari ishlab chiqilishi hamda 10 ta ijtimoiy obyektning energiya samaradorligi oshirilishi ta'minlansin.

Mazkur bandning so'zsiz, sifatli va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ul etib Bosh vazir o'rinbosari J.Qo'chqorov belgilansin.

22. Belgilansin, 2025-yilda ekologik barqarorlikni ta'minlovchi hududlar va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni ta'minlash borasida: 2025-yildan boshlab shakllantiriladigan investitsiya dasturlari, tarmoq, sohalar va hududlarni rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalarning 15 foizida, 2027-yildan boshlab – 30 foizida, 2030-yildan boshlab – 55 foizida “yashil komponentlar” bo'lishi lozim;

davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqiladigan uglerod neytralligiga erishish, iqlim o'zgarishiga moslashish, atrof-muhitni asrash, yashillik darajasini oshirish va “yashil loyihalar”ni amalga oshirishga qaratilgan “yashillik dasturlari” Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi;

har yili davlat organlari va ijtimoiy obyektlarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va “yashil texnologiya”larni joriy qilish bo'yicha ekologik reytingi yuritib boriladi.

23. Hududlarda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni samarali tashkil qilish, hududiy davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini takomillashtirish maqsadida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlariga Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan kelishgan holda ekologiya va “yashil rivojlanish” masalalari bo'yicha konsultantlar xalqaro moliya institutlari grant mablag'larini hisobidan jalb qilinsin;

2025-yil 1-sentabrdan boshlab tuman (shahar) darajasida ekologik pasportlar va ekologik master rejalarni hamda hududlarning ekologik reytingini ishlab chiqish va keng jamoatchilikka taqdim etish amaliyoti joriy etilsin.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A.Abduxakimov jalb qilinadigan konsultantlarning faoliyatini muvofiqlashtirishga mas'ul etib belgilansin.

24. Quyidagilari:

a) O'zbekiston mahallalari uyushmasi (Q.Kuranbayev):

bir hafta muddatda tuman va shaharlar kesimida 2025-yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxt ko'chatlarini hamda xonadonlar va ichki ko'chalarga gul va qalamchalarni ekish dasturlari Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini;

2025-yil bahor-kuz mavsumlarida respublikadagi barcha mahallalarning ichki ko'chalari va aholi xonadonlarida 32 million tup mevali va manzarali daraxtlar, buta ko'chatlarini hamda rayhon, gulto'ji, atirgul va boshqa gullar, shuningdek, qalamchalarni ekish va parvarishlab borishni;

“Obod xonadon”, “Obod ko'cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish maqsadida 2025-yilning 10-fevraldan 10-martgacha qadar har bir xonadon, ko'cha va qabristonlarda obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish ishlarini uyushqoqlik bilan tashkil etishni;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda Navro'z bayramiga qadar mahallalar o'rtasida “Obod xonadon”, “Obod ko'cha” va “Obod mahalla” ko'rik-tanlovlari o'tkazilishini ta'minlasin.

Mazkur bandda nazarda tutilgan tadbirlar Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jang'armasi, homiylik va xayriya mablag'larini hisobidan amalga oshirilishi belgilansin;

b) Bosh prokuratura (Sh.To'xtaboyev) O'zbekiston mahallalari uyushmasi (Q.Kuranbayev) bilan birgalikda joylarga chiqqan holda mazkur bandda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishini ta'minlasin.

25. 2025-yil 1-sentabrdan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyat va tuman (shahar) hokimlarini lavozimlariga tasdiqlashda va lavozimdan ozod etishda quyidagi ekologik ko'rsatkichlarni belgilash bo'yicha ekologik audit o'tkazilib borilsin:

hududning yashillik va o'rmonlar bilan qoplanganlik darajasi hamda o'rmonlar va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni; hududdagi daraxtlar soni;

shaharlar va yirik sanoat korxonalarining yashil belbog'lar bilan o'rnanlik darajasi;

suv havzalari va daryo o'zanlaridagi qum va shag'allar holati; atmosferaga tashlamalar miqdori va havo ifloslanishining darajasi;

atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish bo'yicha I va II toifalarga mansub korxonalarining atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringi stansiyalari, chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalarini o'rnatganlik holati;

aholiga chiqindilar bo'yicha xizmat ko'rsatishning qamrovi, chiqindi yig'ish shoxobchalari va konteynerlari bilan ta'minlanish holati va xizmat ko'rsatish sifati darajasi.

26. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (A.Abduxakimov) bir oy muddatda davlat ekologiya nazorati va tekshiruvni amalga oshirish tartibini takomillashtirish, Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, uning xodimlarini maxsus texnika va transport vositalari bilan ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

27. Davlat byudjeti mablag'laridan samarali va oqilona foydalanishda parlament nazoratini yanada kuchaytirish maqsadida Hukumatning Davlat byudjetiga doir barcha hisobotlarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga Hisob palatasining tashqi audit xulosasi bilan birgalikda kiritish amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

28. Bosh vazir o'rinbosari J.Xodjayev, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A.Abduxakimov, iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o'rinbosari I.Norqulov turizm salohiyati yuqori bo'lgan tog'li hududlar, suv omborlari va suv havzalari hamda daryo bo'yilarida “apart-otel”, “kapsula” uylar va shu kabi joylashtirish vositalaridan iborat turizm majmualarini tashkil etishga 500 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni jalb qilish choralarini ko'rsin.

29. Qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish va aholini doimiy daromad manbalari bilan ta'minlash maqsadida: 2025-yil 1-martgacha qadar tajriba-sinov tariqasida tanlab olingan yer uchastkalari konturlar yaxlitligi va sug'orish tizimini buzmaganda, 3 gektardan 50 gektargacha bo'lgan o'lchamlarda, ijarachilarning mustaqilligi va yuqori qo'shilgan qiymatga ega ekoran yetishtirishga asoslangan yangi tizim bo'yicha auktsion savdolari orqali ajratilsin;

tuproq agrokimyoviy tahlillarini o'tkazish maqsadida 10 ta portativ-mobil laboratoriyani xarid qilish ta'minlansin;

organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan yer maydonlari 10 ming gektarga yetkazilsin.

Mazkur bandning ijrosini ta'minlashga mas'ul etib qishloq xo'jaligi vaziri I.Abduraxmonov belgilansin.

30. Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) Adliya vazirligi (A.Tashkulov) bilan birgalikda 2025-yil 1-oktabrdan boshlab davlat xizmatlari ko'rsatilishida qog'oz shaklidagi hujjatlar aylanmasining to'liq elektron shakliga o'tkazilishini ta'minlasin.

31. “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o'rinlarda – Davlat dasturi) doirasida quyidagilar 1 – 21-lovalarga muvofiq tasdiqlansin:

2025-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasini;

2025-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati;

2025-yilga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar;

2025-yilda atrof-muhitni asrash yo'nalishida vazirlik va idoralar tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar rejasini;

2025-yilda atrof-muhitni asrash bo'yicha xalqaro hamkorlik yo'nalishida chora-tadbirlarni amalga oshirish rejasini;

O'zbekiston Respublikasida “Yashil turizm” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasini;

2025-yilda hududlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatlarini joriy etish rejasini;

2025-yilda bahor-kuz mavsumlarida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxtlarni ekish bo'yicha reja;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

BUYUK SHOIR VA MUTAFAKKIR MIR ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSINI YURTIMIZ VA JAHON MIQYOSIDA KENG TARG'IB QILISH HAMDA NAVOIY VILOYATIDA
“ALISHER NAVOIY YILI”NI YUQORI DARAJADA O'TKAZISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

4. Alisher Navoiyning benazir ijodiy merosini keng ommalashtirish hamda Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili”ni yuqori darajada o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur) 2-lovaga muvofiq tasdiqlansin.

Respublika komissiyasi Dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlar o'z vaqtida samarali amalga oshirilishini tashkil etsin, bu borada idoralararo hamkorlikni ta'minlasin.

Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti Respublika komissiyasining ishchi organi etib belgilansin.

5. Navoiy viloyatida 2025-yil “Alisher Navoiy yili” deb nomlangani munosabati bilan Navoiy viloyati hokimligi:

Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda 2025-yil 8-9-fevral kunlari buyuk bobomiz tavalludining 584-yilligi munosabati bilan mahalliy va xorijiy olimlar, ijodkor ziyolilar, keng jamoatchilik ishtirokida “Alisher Navoiy va Sharq Rennansisi” an'anaviy xalqaro simpoziumi va navoiyxonlik tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazish choralarini ko'rsin;

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Navoiy viloyatining barcha shahar va tumanlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq holda so'lim bog' va xiyobonlar, yashil hududlar tashkil etsin;

Badiiy akademiya, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Madaniy meros agentligi bilan birgalikda Navoiy shahrida barpo etilayotgan “Yangi O'zbekiston” bog'ida Alisher Navoiyning haykali va “Xamsa” dostonlari mavzusidagi ramziy darvozalarni o'rnatish hamda memorial muzey tashkil etish choralarini ko'rsin;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha

va maktab ta'limi vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasi bilan birgalikda har yili alohida reja asosida Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlab ijodiy kechalar, tanlovlar, kitoblar nashri va taqdimoti hamda ilmiy-adabiy anjumanlar o'tkazsin. Ushbu tadbirlarga talabalar, yosh ijodkorlar va iqtidorli o'quvchilarni jalb qilish, ularni munosib rag'batlantirish orqali “Navoiy viloyati tajribasi”ni yo'lga qo'ysin.

6. Fanlar akademiyasi:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Navoiy viloyati hokimligi bilan birgalikda Navoiy davlat universitetida 2025-yil 10 – 15-oktabr kunlari “Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosining umumbashariy ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiyasi o'tkazilishini ta'minlasin. Bunda xalqaro konferensiyani o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Navoiy viloyati hokimligi tomonidan teng ulushlarda qoplanishi belgilab qo'yilsin;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan birgalikda “Hazrat Navoiyni anglash – o'zligimizni anglash” mavzusida Respublika tanlovi, shuningdek, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda “Navoiyxonlik kechalari”ni tashkil etsin.

7. Yozuvchilar uyushmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Navoiy viloyati hokimligi bilan birgalikda Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, u yashagan davrning ma'rifiy-adabiy muhiti, shoirning ustoz va zamondoshlari, izdoshlari haqida hikoya qiluvchi asarlarni qayta nashr etib, oliy ta'lim muassasalarida Alisher Navoiy o'lyozmalarining ko'rgazmalari hamda asarlarining taqdimotlarini o'tkazsin.

8. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksionerlik jamiyatining Alisher Navoiy hayoti hamda ijodiy faoliyatiga

bag'ishlangan badiiy kinofilmi moliyalashtirish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Kinematografiya agentligi 2026-yil yakuniga qadar navoiyxonus olimlar, yetuk ssenariychi va rejissyorlar, aktyorlar va soha mutaxassislari ishtirokida ushbu badiiy filmni yaratish, uning tantanali premyerasini tashkil etish choralarini ko'rsin.

9. Tashqi ishlar vazirligi Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan alohida reja asosida Turkiy davlatlar tashkilotining Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotini xorijiy davlatlarda keng targ'ib qilish choralarini ko'rsin.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Alisher Navoiy hayoti, uning davlat arbobi sifatidagi faoliyati hamda jahon adabiyoti va tamadduni rivojiga qo'shgan ulkan hissasini aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida, shuningdek, korxonalar, tashkilotlar va mehnat jamoalarida keng targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etsin.

11. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston milliy media birlashmasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Alisher Navoiy hayoti hamda ijodiy merosini o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

12. Mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarga ajratilgan byudjet mablag'larini, ularning byudjetdan tashqari mablag'larini hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilansin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti	Sh. MIRZIYOYEV
Toshkent shahri, 2025-yil 7-fevral	

HUDUDLARDA
XIZMAT KO'RSATISH
SOHALARI YANADA
RIVOJLANTIRILADI

Umuman, joriy yilda IT xizmatlari hajmini 30 foiz o'stirib, 80 trillion so'mdan, eksportini 1 milliard dollardan oshirish imkoniyati borligi aytiladi. Hudud va tarmoqlardagi xizmatlarni raqamlashtirish bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi.

Servisni rivojlantirishda qulay transport infratuzilmasi juda muhim. O'tgan yili transport xizmatlari 8,6 foizga o'sib, 145 trillion so'mni tashkil qildi. Lekin yuqori iqtisodiy o'sish uchun bu yetarli emas.

Shu bois mamlakatimiz shaharlari o'rtasida samolyot va poyezd qatnovlarini ko'paytirish, multimodal logistika markazlari qurib, tranzit yuk ulushini oshirish, taksilarga qulaylikni kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi.

Bular orqali joriy yilda transport xizmatlari hajmini 185 trillion so'mga, eksportini 2,3 milliard dollarga olib chiqish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Xizmat yo'nalishida eng katta soha bu turizm. So'nggi yillarda 90 dan ortiq davlatlar bilan aloqalar yaxshilangani natijasida xorijlik sayyohlar qariyb 4 karra oshdi. O'tgan yili turizm xizmatlari eksporti 3,5 milliard dollar bo'ldi.

Lekin mamlakatimizning

salohiyati bundan ancha yuqori. Masalan, Malayziya va Indoneziya fuqarolari Umragga borishdan oldin allomalarimiz qabrin ziyorat qilishni xohlaydi. Ular uchun “Umra plus” xizmati yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Xiva va Toshkentdagi turistik majmualarda xalqaro konsert va forumlar o'tkazish ko'pchilikni o'ziga tortadi. Tashrif buyuruvchilar mehmonxonalar, restoran, savdo va boshqa ko'ngilochar maskanlarga ham mijoz bo'ladi.

Ijtimoiy sohalarida ham imkoniyatlar ko'p. Masalan, o'tgan yili “Tibbiy xizmatlar mehmondo'stligi” dasturi yo'lga qo'yilgan edi. Bu xorijiy fuqarolarni davolash va eksportni oshirish uchun qulaylik.

So'nggi sakkiz yilda 125 ta yangi oliy ta'lim tashkiloti ochilgan. Lekin bu sohadaги eksport imkoniyatlariga mutlaqo mos emas. Yoki bo'sh turgan ayrim madaniyat va san'at markazlarini ham xususiy sektorga berish mumkin.

Yig'ilishda Prezidentimiz mutasaddi va tadbirkorlar bilan muloqot qildi. Soha mas'ullari bu yil hududlarda 2 million 500 ming aholini band qilish rejalari yuzasidan axborot berdi.

O'ZA.

Oliy Majlis Senatida

KUN TARTIBIDA – YIRIK ANJUMANGA TAYYORGARLIK MASALASI

Oliy Majlis Senatida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasini o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mitaning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Uni Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev olib bordi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga asosan 2025-yilning 5 – 9-aprel kunlari 190 ta mamlakatni birlashtirgan Parlamentlararo Ittifoqning eng yirik xalqaro tabiri – 150-yubiley assambleyasiga O'zbekiston mezbonlik qiladi. Xalqaro darajadagi parlamentarizm va barqaror

rivojlanishning ijobiy tajribasi yuqori bo'lgan mamlakatlardagina tashkil qilinadigan tadbir Markaziy Osiyo davlatlari tarixida ilk bor yurtimizda o'tkazilmoqda. "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzuida o'tkaziladigan assambleyaning turkum yig'ilishlarida butun dunyo parlamentlari yetakchilari rahbarligidagi delegatsiyalar tomonidan aholini ijtimoiy himoya

qilish va kambag'allikni qisqartirish, inson huquqlari himoyasi, qonun ustuvorligi hamda gender tenglikni ta'minlash, ilm-fan, texnologiyalarni rivojlantirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Yig'ilishda O'zbekistonda bo'lib o'tadigan mazkur assambleyaga tayyorgarlik ko'rish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu tadbirga mas'ul mutasaddi tashkilotlarning vazifalari va amalga oshirilishi lozim bo'lgan choralar haqida fikr almashildi.

"Xalq so'zi".

ISLOHOTLAR NATIJALARI YUQORI BAHOLANDI

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev Yaponiya Bosh vazirining milliy xavfsizlik, yadroviy qurolsizlanish va uni tarqatmaslik masalalari bo'yicha maxsus maslahatchisi Akixisa Nagasima boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda Yaponiya va O'zbekiston o'rtasidagi do'stona munosabatlar va strategik hamkorlikning muhim jihatlari haqida so'z yuritildi. Yaponiya O'zbekistonning Osiyo – Tinch okeani mintaqasidagi asosiy tashqi siyosiy va iqtisodiy sheriklaridan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakat bilan sheriklikda ta'lim, fan, raqamlashtirish va innovatsiya, tibbiyot yo'nalishlarida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Elektr energetikasini rivojlantirish, ishlab chiqarish, manbalarni qayta ishlash va raqamlashtirish sohalarida hamkorlik faollashmoqda.

Akixisa Nagasima O'zbekistonda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar natijasida barcha jahdada yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni yuqori baholadi. Mamlakatimizning tashqi siyosatdagi ochiq, pragmatik siyosati xalqaro miqyosda e'tirof etilayotganini ta'kidledi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi uzoq yillik masalalar davlatimiz rahbari

tashabbusi bilan o'z yechimini topayotgani va yaqin qo'shniçilik aloqalari mustahkamlangani e'tirof etildi.

Muloqot davomida Yaponiyaning Markaziy Osiyo bilan hamkorligini yanada kengaytirish maqsadida "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqoti doirasidagi tashabbuslarni ilgari surish va yirik xalqaro sammitga tayyorgarlik jarayonlari yuzasidan fikr almashildi. Shuningdek, parlamentlararo aloqalar doirasidagi do'stlik guruhlari faoliyati, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish hamda barcha darajadagi parlament muloqotini faollashtirish muhimligiga e'tibor qaratildi.

Tomonlar kelgusida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya, kadrlar tayyorlash hamda madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga kelishib oldi.

"Xalq so'zi".

XALQARO SIYOSIY MULOQOT MAYDONI

Bugun mamlakatimiz xalqaro maydonda mustahkam o'ringa ega bo'layotgan, tashabbuslari izchil tatbiq etilayotgan davlatlardan sanaladi. Bu bejiz emas. Chunki yangi O'zbekiston siyosiy tizimini ochiqlik va demokratiya tamoyillariga asoslangan holda takomillashtirib, parlament faoliyatini kuchaytirish, qonunchilik tizimini modernizatsiya qilish va xalq manfaatlarini ta'minlashda qat'iy qadamlar tashlamoqda. Aynan shu yutuqlar tufayli O'zbekiston jahon hamjamiyatida e'tirof etilib, yirik xalqaro siyosiy tadbirlarning mezboriga aylanib borayotir.

Parlament diplomatiyasi

Prezidentimiz taklifiga asosan shu yilning 5 – 9-aprel kunlari Toshkentda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi o'tkazilishi belgilangan bunga yaqqol misoldir. Bu nafaqat O'zbekiston parlament diplomatiyasining ulkan yutug'i, balki mamlakatimizning xalqaro siyosiy nufuzini mustahkamlash yo'lidagi tarixiy voqea bo'lib, Markaziy Osiyo mintaqasida ilk bor tashkil etilayotgan xalqaro tadbir.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan mazkur tashabbus xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanib, O'zbekistonni jahon parlamentarizmining muhim maydoniga

aylantirish yo'lidagi ulkan qadam bo'ldi. Ushbu nufuzli tadbir mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlar natijasida e'tirof etilmog'ida.

Ta'kidlash joizki, Parlamentlararo Ittifoq dunyoning 190 ta mamlakatini o'zida birlashtirib, parlamentlar o'rtasida xalqaro muloqot, hamkorlik va tajriba almashish maydoni vazifasini o'taydigan eng yirik tashkilotdir. Pl assambleyalari faqat parlamentarizm va barqaror taraqqiyot borasida yuqori tajribaga ega davlatlarda o'tkaziladi. Nufuzli tadbirga mezbonlik qilish O'zbekistonning huquqiy demokratik davlat sifatida

shakllanib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Toshkentda bo'lib o'tadigan assambleya "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzuga bag'ishlanib, unda global miqyosda dolzarb bo'lgan masalalar muhokamadan o'tkaziladi. Aholing ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, kambag'allikni kamaytirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish, gender tenglikni mustahkamlash hamda ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish orqali yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalalari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, inson huquqlari, gender tenglik, ilm-fan va texnologiyalar, yoshlar masalalariga bag'ishlangan qator qo'mitalar yig'ilishlari ham o'tkazilishi rejalashtirilgan. O'zbekiston bunday tadbirga mezbonlik qilish orqali xalqaro hamjamiyat oldida nafaqat siyosiy islohotlarning muhim ishtirokchisiga, balki global muammolarni hal etishda ham yetakchi maydonlardan biriga aylanishi mumkinligini yana bir bor isbotlaydi.

Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlik

so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Xususan, 2020-yilda Buxoroda va 2023-yilda Toshkentda barqaror rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan global forumlar o'tkazilgan. Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadalashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Ushbu yutuqlar O'zbekiston parlamentining xalqaro maydondagi rolini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan aytganda, o'tkazilishi rejalashtirilayotgan mazkur assambleya O'zbekiston uchun yirik imkoniyatlar eshigini ochishi, shubhasiz. Biz bu tarixiy tadbirni yuqori saviyada tashkil etish orqali mamlakatimizning ochiqligi, islohotlarga sodiqligi va parlament diplomatiyasidagi faolligini yana bir bor namoyon qilamiz.

Mavluda XO'JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Spikeri o'rinbosari.

Senat qo'mitasida

DONORLIKKA KO'MAK VA IMTIYOZLAR

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi majlisida "Donorlik harakatini qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Senatorlar qonun donorligini yanada rivojlantirish maqsadida donorlarni qo'llab-quvvatlash, taqdim etiladigan imtiyozlarni qonun darajasida mustahkamlash zarurligiga alohida e'tibor qaratdi. "Shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida" hamda "Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risida"gi qonunlarga qonun xazinalari va donorlar soni oshirishini hamda beriladigan kafolatlar, kompensatsiyalar va rag'batlantirishlarni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Mazkur qonunning amaliyotga tatbiq etilishi tibbiy-ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, insonlarni ko'ngilli ravishda qon topshirishga chorlash orqali bemorlarning hayotini saqlab qolish, jamiyatda insonparvarlik va mehr-oqibat g'oyalarni keng targ'ib qilish imkonini beradi.

Yakunda ko'rilgan masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Deputat fikri

KECHIKTIRIB BO'LMAYDIGAN CHORALAR

Mamlakatimiz geografik jihatdan dengizga ummonlardan uzoqda joylashgan. Bunday sharoitda yod maddasi yetishmasligi bilan bog'liq muammolar kelib chiqishi tabiiy. Shu bois O'zbekiston yod tanqisligi bo'yicha murakkab hududlardan biri sanaladi. Yurtimizda aholi salomatligini yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan islohotlarda yod yetishmasligi kasalliklarini profilaktika qilish va oldini olish hayotiy masala hisoblanadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti statistikasiga ko'ra dunyo aholisining uchdan bir qismidan ko'prog'ida yod tanqisligi kasalligining rivojlanish xavfi yuqori. 740 mln. kishida mazkur kasallik buoq ko'rinishida mavjud bo'lsa, 50 mln. aholi miya disfunktsiyasi va aqliy zaiflikka duchor bo'lgan. Shuningdek, mamlakatimizda qalqonsimon bez kasalliklariga chalingan 285 658 fuqarodan 94 341 nafarini bolalar tashkil etadi. Yanada achinarlisi, ularning 92 983 nafari gipertiroz va buoq kasalligiga chalingan.

Bilamizki, yod inson salomatligi uchun muhim elementlardan sanaladi. Ammo ushbu mikroelementni inson organizmi o'zi ishlab chiqara olmaydi, uni faqat tashqi muhit orqali qabul qilishi mumkin. U tabiiy ravishda faqat ma'lum iqlimda, ko'pincha dengizga yaqin mintaqalarda hosil bo'ladi. Bu muddanin yetishmasligi aqliy zaiflik, tirnoqlarning tabaqalanishi, soch to'kilishi, teri quruqlashuvi, uyquchanlik, charchoq kabi turli kasalliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ushbu kasallikning profilaktikasi sifatida iste'mol bozorini yodlangan tuz va oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'dirish, yodlangan osh tuzini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilishga doir talablarni belgilash bo'yicha qo'shimcha choralarini ko'rish zarur. Chunki jahon tajribasida yod tanqisligiga qarshi kurashning eng samarali usullaridan biri aynan osh tuzini yodlash ekanligi keng e'tirof etilgan.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda O'zbekistonda "Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun asosida joriy qilingan osh tuzini yod bilan boyitish tizimini yanada takomillashtirish talab etilmoqda. Chunki osh tuzi tarkibidagi yodni aniqlash uchun respublika savdo nuqtalarida o'tkazilgan laboratoriya tahlillariga ko'ra sotib olingan 1046 ta osh tuzi namunasiidan 547 tasi (52 foiz) talabga javob bermasligi, 85 tasida esa (8 foiz) umuman yod yo'qligi aniqlangan.

Yuqoridagi kabi holatlarning tez-tez uchrashi iste'mol bozorini yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'dirishga qaratilgan hamda osh tuzini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilishga doir talablarni belgilash bo'yicha qo'shimcha choralarini ko'rish zarurati yuzaga keltirmoqda.

Shundan kelib chiqib, kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida yana bir muhim hujjat ko'rib chiqildi. Ya'ni unda aholi o'rtasida yod tanqisligi bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama etildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Sog'liqni saqlash vazirligiga osh tuzi va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash uchun foydalaniladigan, tarkibida yod bo'lgan preparatlar, ularga qo'yiladigan talablarni, osh tuzi va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlashga va uni ishlab chiqarishga, tashishga, saqlashga va realizatsiya qilishga qo'yiladigan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena me'yorlarini belgilash hamda nazoratini olib borish vakolatlari berilmoqda.

Bundan tashqari, "Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunga mamlakatimizga faqat yodlangan osh tuzi olib kiritilishi, realizatsiya qilinishini va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda yodlangan tuzdan majburiy foydalanilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritish taklif etildi.

Ushbu hujjatni moddama-modda muhokama qilish jarayonida deputatlar tomonidan bir qator masalalar o'rtaga tashlandi. Qonun loyihasida faqat yodlangan osh tuzini mamlakatimizga olib kirish ko'zda tutilayotgani aytildi. Muhokama jarayonida yodlangan tuzni import qilib o'zimizda yodlash, keyin iste'molga chiqarish masalasi qanday bo'ladi degan savollar ko'tarildi. Shuningdek, qonun loyihasini qo'llash mexanizmlari, osh tuzi va texnik tuzlarning farqli jihatlari qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi.

Munozaralardan kelib chiqib ushbu hujjatning kirish qismiga qonun bilan mamlakatimizga faqat yodlangan osh tuzi olib kiritilishi bilan birga, uni realizatsiya qilish ham qo'shib qo'yildi. Qabul qilingan ushbu hujjat mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza etishda yana bir muhim qadam bo'ladi. Bu orqali yod yetishmasligi bilan bog'liq kasalliklar profilaktika qilindi, iste'mol bozorini yodlangan tuz va oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'dirishga qaratilgan islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Muqaddas O'RAZALIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

TO'YLARIMIZ MA'NAVIYAT, MEHR-OQIBAT TANTANASIGA AYLANSIN

Xalqimiz boy tarix, qadriyatlar va milliy urf-odatlariga ega bo'lib, zamonlar osha ularni o'z qalbi va ma'naviyatida saqlab, avlodlardan-avlodga meros qoldirib kelmoqda. Ana shunday qadriyatlarimizning biri to'ylardir.

Mushohada

Milliyligimiz, urf-odat va an'analimizning yorqin namunasi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ifodasi o'laroq to'ylar hayotimizning bir bo'lakiga aylangan. Bugungi shiddatli zamon ajdodlarimizning bosib o'tgan turmush tarzidan zarur xulosalar chiqarish bilan birga, ularni haqqoniylik hamda xolislik asosida, tanqidiy ruhda tahlil qilishni ham taqozo etadi. Shu ma'noda, hozirgi kunda turli marosimlarni qanday o'tkazish masalasi ko'pchilik ziyolarning keng muhokamalariga sabab bo'lmoqda. Jumladan, to'ylardagi dabbabozlikni yo'qotish – ana shunday dolzarb mavzulardan biri.

to'y egalari daromadlariga yarasha emas, balki qarz olib bo'lsa-da, katta sarf-xarajat qilmoqda. Bu esa to'ydan keyin ba'zi kelishmovchiliklarga, oilada yetishmovchiliklarga sabab bo'lib, oqibatda yoshlarning ajrashib ketishlariga ham olib kelmoqda.

Xo'sh, bunday salbiy holatlarning oldini qay yo'sinda olish mumkin? Albatta, to'y qilish va uni qanday o'tkazish har kimning o'z erkinligi. Lekin bu kishiga o'z huquqim deya, azaliy urf-odatlariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mensimay qarash, shuhratparastlikka berilib, o'zini ko'z-ko'z qilish, boshqalarning ijtimoiy ahvolini inobatga olmay, isrofgarchilikka yo'l qo'yish imkonini bermaydi.

Jamoatchilik nazorati zarur

O'zbekistonda to'y-hashamlar uchun me'yorlar ishlab chiqilgan. Jumladan, 2019-yil 14-sentabr kuni "To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va Oliy Majlis Senati Kengashining qo'shma qarori qabul qilingan.

Qarorda har xil ko'ngilsizliklarning oldini olish maqsadida to'y-hashamlar va boshqa oilaviy tadbirlarning davomiylik vaqti hamda ularga chaqiriladigan mehmonlar soni aniqlanib, Shuningdek, hujjatda to'y marosimlarining katta xarajat talab etadigan har bir qismiga to'xtalib, asosiy e'tibor ularning ixchamligi va kamxarajat o'tkazilishiga qaratilgan. Biroq ushbu qarorni amalda to'liq bajarish uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarur. Jamiyatda fikrlashni o'zgartirish, ayrim odamlarga hoyu havas ermas, balki oilaviy baxt muhimligini tushuntirish, oddiy, isrofgarchilikdan xoli to'y o'tkazish madaniyatini shakllantirish lozim.

Bir paytlar pandemiya sababli to'ylarni faqat 30 – 40 kishiilik kichik doirada o'tkazish qat'iy belgilangan edi. Bu tartib, avvaliga majburiyat joriy etilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ko'pchilik uchun qulaylik yaratdi. Odamlar ortiqcha xarajatlansiz, yaqinlari davrasida to'y o'tkazishning afzalliklarini tushunib yetdi. Hatto pandemiya hali yakunlanmasdan turib ko'plab yoshlar ushbu imkoniyatdan foydalanib katta marosimlarsiz, sodda va ixcham tarzda turmush qurishga

oshiqdi. Ammo pandemiya tugaguch yana dabbabali to'ylar avj oldi.

Jadidchilik harakati asoschisi, ma'rifatparvar bobomzi Mahmudxo'ja Behbudiy o'z asarlari va maqolalarida to'y-hashamlardagi isrofgarchilikni qattiq tanqid qilgani, xalqni ortiqcha dabbabadan tiyilishga chaqirganini ko'pchiligimiz bilamiz. Uning fikricha, bu illatlar millatning taraqqiyotiga to'siq bo'lib, moddiy qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Behbudiyning "Millatning saodati hashamatli to'ylarda emas, balki ilm-fan va ma'rifatda", "Ortiqcha dabbaba, behuda xarajatlar millatni rivojlantirish o'rniga uni orqaga tortadi", "Boylar behisob mol-mulkini sarflab, katta dabbabali to'ylar qiladi. Kambag'allar esa ularga taqilid qilib, o'zini qiynaydi, qarzga botadi. Natijada jamiyatda tengsizlik kuchayadi, odamlarga moddiy zarar yetadi" kabi mazmundagi fikrlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mazmunan boy, shaklan ixcham bo'lsin

Shu o'rinda to'y-tantanalarni samarali tashkil etish uchun bir nechta takliflarni bildirib o'tmoqchimiz.

Birinchi, yaqin yillargacha "Qizlar bazmi" kelining dugonalari va yaqin ayol qarindoshlari ishtirokida ixcham, samimiy muhitda o'tkazilar edi. Ushbu marosimning maqsadi kelini nikh oldidan iliq tilaklar bilan kuzatish, unga hayotda asqatadigan maslahatlar berish va qizg'in suhbat qurishdan iborat bo'lgan. Biroq so'nggi yillarda "Qizlar bazmi" an'anaviy shaklidan uzoqlashib, asosiy to'ydan qolishmaydigan darajada dabbabali, ota-onaning do'stlari, qarindosh-urug'lari, qudalar ishtirokida o'tadigan marosimga aylanib ketdi. Endilikda bu tadbir katta restoran va hashamatli to'yxonalarda o'tkazilib, maxsus dekoratsiyalar, san'atkorlar chaqirish, haykal shaklidagi tortlar va fotosessiyalar bilan bezatilmoqda. Natijada oddiy va samimiy kecha bo'lib kelgan bazm ortiqcha xarajat va isrofgarchilikka sabab bo'lmoqda.

Kuyovning do'stlari ishtirokida o'tkaziladigan "Navkar" marosimi ham tobora tantanavor tadbirga aylanayotir. Shu bilan birga, to'ydan keyingi "Kelin salom" ham oddiy marosim emas, balki san'atkorlar va maxsus sahna bezaklari bilan o'tkaziladigan shou tusini o'ylayti.

Shubhasiz, ularni ixchamlashtirishimiz shart. Kelining xonadonida bo'lib o'tadigan "Qizlar bazmi" marosimi nomiga monand faqat qizlar davrasida, ya'ni kelining dugonalari bilan ixcham o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikkinchidan, kelining sarposiga keragidan ortiq darajada narsa-buyumlarining qo'shilishi, ayni cho'g'da bo'lajak kelin-kuyovning xonasi qiz tomonidan turli mebel, gilam, pardalar bilan bezatilishi aslida bining mentalitetimizga umuman to'g'ri kelmaydi. Chunki bu orqali qizlarimizning qadr-qimmatini tushsa tushadiki, aslo oshmaydi. Axir quda tomonga yillar davomida og yuvib, og tarab, kamol topirib, qizini o'zga xonadonga uzatayotgan ota-onalarning farzandini bag'ridan uzib olayotganining o'zi katta davlat. Qimmatbaho narsa-buyumlar, jhozlarni qo'shib olishi esa adolatdan emas.

Uchinchi, to'y-tantanalari bo'lib o'tadigan keçki bazmlar ham, oshlar ham 100 – 150 nafardan oshmagan kishi bilan o'tkazilsa, nur ustiga nur. Aslida bu kabi bazmlar uchun taklifnomalar joriy qilinishi lozim. To'yxonaga faqat taklifnomalar orqali kiritilsa, mehmonlar ham taklifnomada qayd etilgan raqamlar ostidagi o'rindiqla o'tirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu, avvalo, to'y egalari uchun juda qulay, chunki aksar bazmlarda kelgan mehmonlar o'rindiqlarga sig'may qoladi. Natijada mehmonlar xijolat chekib, yangidan stollar bezatadi yoki aksincha, ko'plab bezatilgan stollar mehmonsiz qoladi. Bu esa ortiqcha isrofgarchilikka sabab bo'ladi. Shu bois to'ylar aniq dastur asosida tashkillashtirilsa, ham madaniy, ham iqtisodiy tarafdin risoladagidek ish bo'lar edi.

To'rtinchidan, bugungi kunda tobora ommalashib borayotgan, insonlarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga tushib qolishiga sabab bo'layotgan "sevgi hikoyalari", ya'ni o'z nomi bilan aytganda "Love story", "Marry me" lavhalarini tayyorlash qadriyatlarimizga qanchalik mos? Ular yoshlarni, haqiqatan ham, baxtga chorlay oladimi? Bizingcha, yo'q! Hatto aksincha, katta hayotga yasamalik, soxtakorlik, o'zlar o'yab topgan illyuziya bilan qadam bosishiga olib keladi. Qolaversa, ko'pgina sevgi hikoyalari hayotdagi haqiqatni tashvirlamaydi. Bu yoshlar orasida noto'g'ri tasavvurlar shakllanishiga turki bo'lishi mumkin.

Kitoblar yoki filmlardagi mukammal sevgi badiiy tafakkur mahsuli ekanini bilamiz. Ulardagi jirochilar aktyorlar ekanini xayolimizning bir chetida doim turadi. Biroq "Love story" qahramonlari aktyorlar emas. Ular kelgusi hayotidan baxt izlayotgan oddiy yoshlar. Sevgi hikoyalari fantazyalari ularga noreal umidlar berishi, hatto xayoliy dunyoda yashashga olib kelishi mumkin. Bu esa ularni haqiqiy hayotdan uzoqlashtiradi, turmushda duch kelinadigan



O'ZBEKISTON - MALAYZIYA:

INNOVATSION TARAQQIYOT DAVRI BOSH LANDI

Bu yil O'zbekiston va Malayziya o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganiga 33 yil to'ldi. O'tgan davr mobaynida ikki mamlakat munosabatlari do'stlik, tenglik, hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslanib, izchil va samarali rivojlanib kelmoqda.

Davlatimiz rahbarining shu yil 4-5-fevral kunlari Malayziyaga rasmiy tashrifi hamda uning doirasida erishilgan kelishuvlar yaqin kelajakda ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarini barcha bosqichda yangi maralariga olib chiqishga xizmat qilishi bilan yanada ahamiyatlidir.

Tashrif arafasida tahliyl markazlar uchrashuvi, O'zbekistonning turizm salohiyati va madaniy merosi taqdimotlari, yetakchi oliy ta'lim muassasalari rektorlari forumi o'tkazildi. Hamkorlikni rivojlantirish va oliy darajadagi kelishuvlar ijrosini samarali muvofiqlashtirish maqsadida tashqi ishlar vazirlarining strategik muloqot platformasini tashkil etishga qaror qilindi.

Yetakchilar o'rtasidagi muloqot davomida BMT, ISLom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirish muhimligi aytilidi. Savdo-iqtisodiy va investitsiya sohasidagi amaliy hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Tovar ayirboshlashni ko'paytirish maqsadida Iltimozli savdo to'g'risidagi bitimni ishlab chiqish, o'zaro sanoat ko'rgazmalarini o'tkazish, Sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish borasida bir to'xtamga keldilar.

Malayziya hukumati O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishini faol qo'llab-quvvatlamogda. Yetakchilar 2025-2026-yillarni O'zbekiston - Malayziya sherikligini innovatsion rivojlantirish davri, deb e'lon qilishga kelishib oldilar. Buning uchun esa tashrif doirasida erishilgan natijalar va aloqalarning bugungi bosqichi yetarli. Xususan, iqtisodiy hamkorlik yangi modelining ustuvor yo'nalishlari sifatida neft-kimyoy va kimyo, elektronika va yarimo'tkazgichlar sanoati, innovatsion sanoat, "aqilliq" qishloq xo'jaligi, "yashil" energetika, ziyorat turizmi va boshqa yo'nalishlarda aniq kelishuvlarga erishildi. Kooperatsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Toshkent viloyatida Malayziyaning yetakchi kompaniyasi boshqaruvida maxsus iqtisodiy zona

tashkil etilishi belgilandi.

Samarali muzokaralar yakunida Strategik sheriklik yo'lida ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risida qo'shma bayonot imzolandi. Shuningdek, delegatsiya a'zolari ishtirokida "Mahsulotlarning "halol" standartlariga muvofiqligini baholash sohasida hamkorlik to'g'risida", "Bojxona ishida hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida", "Oliy ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sud-eksperitlik faoliyati, akademik-diplomatik, korruptsiyaga qarshi kurashish hamda "aqilliq" shaharlarni rivojlantirish sohasidagi hamkorlik to'g'risida" gi bitimlar imzolandi.

Ushbu kelishuvlar nafaqat O'zbekiston va Malayziya davlatlari taraqqiyotiga, qolaversa, ikki mintaqamamlakatlari rivojida ham muhim rol o'ynaydi. Bir misol, bugungi kunda "halol" mahsulotlarga global miqyosda talab oshib borayotgan bir paytda O'zbekiston va mintaqamamlakatlari uchun ushbu yo'nalish alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mazkur standartdagi mahsulotlar bozori jadal sur'atlar bilan o'sib, bugungi kunda 2,6 trln. dollarni tashkil qilmoqda. Ekspertlar tahliliga ko'ra, 2030-yilga borib, bu ko'rsatkich 5 trln. dollarga yetishi mumkin.

Malayziya "halol" mahsulotlarni eksport qiluvchi yirik davlatlardan biri hisoblanadi va oziq-ovqat, kosmetika hamda farmatsevtika mahsulotlarini "halol" sertifikatlash borasida jahon miqyosida yetakchi davlatlar qatoridan joy olgan. Bugungi kunda Malayziyaning umumiy eksportida "halol" mahsulotlarning ulushi 17,3 foizni tashkil etadi. Bu juda katta ko'rsatkich sanaladi.

Endilikda tashrif doirasida erishilgan bitim sabab O'zbekistonning ham bu boradagi ko'rsatkichlari salmog'i oshadi. Bu esa mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti hamda oziq-ovqat xavfsizligi sohasida ijobiy natijalarni qo'lga kiritish imkonini yaratadi.

Mavluda ADHAMJONOVA,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi deputati.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 4-5-fevral kunlari Malayziyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ushbu mamlakatning nufuzli ommaviy axborot vositalari tomonidan keng yoritildi.

O'ZARO MANFAATLI SHERIKLIK YO'LIDA

Xususan, Malayziyaning "Bernama" milliy axborot agentligi tashrifning borishi, muzokaralar va bo'lib o'tgan uchrashuvlar, tomonlar o'rtasida erishilgan kelishuvlar haqidagi maqolalarni tezkorlik bilan e'lon qilib bordi.

Mazkur axborot agentligi muxbirining yozishicha, "Perdana Putra" hukumati majmuasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'lib o'tdi. Oliy darajali mehmonni Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim kutib oldi va muzokaralar chog'ida O'zbekiston - Malayziya munosabatlari sezilarli darajada faollashgani qayd etildi. Shuningdek, tomonlar mintoqaviy va global kun tartibidagi dolzarb masalalarni muhokama qildilar. Ta'kidlanganidek, davlatimiz rahbari Anvar Ibrohim bilan uchrashuv oldidan faxriy mehmonlar kitobiga o'z izohini qoldirdi.

Strategik sheriklik yo'lida ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risida qo'shma bayonotning imzolangan tashrifning muhim natijalaridan biri bo'ldi. Bu haqda "Bernama" MAA, "The New Straits Times" va "The Star" gazetalari xabarlar berilgan. "Bu kelishuv mamlakatlar o'rtasidagi ishonchning yuksak darajasidan dalolat beradi va iqtisodiyot, savdo, investitsiya hamda ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorlikni uchin yangi imkoniyatlar ochadi", deb yozilgan manbalarda.

Ma'lum qilinishicha, Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zaro manfaatli hamkorlik yanada mustahkamlanishga ishonch bildirdi. Ta'kidlanganidek, strategik sheriklik o'zaro tovar ayirboshlash hajmini kengaytiradi va bu allaqachon ijobiy dinamikani

ko'rsatmoqda. 2024-yilda mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 80,9 million AQSh dollariga yetdi, bu esa ikki tomonlama iqtisodiy aloqalar jadallashayotganidan dalolat beradi.

"Sinar Harian", "Malay Mail" va "The New Straits Times" ommabop gazetalarida davlatimiz rahbarining rasmiy tashrifiga doir bosilgan maqolalarda muzokaralar chog'ida iqtisodiy hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratilganini urg'ulangan. Tomonlar yangi investitsiyalarni jalb etish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratish imkonini beruvchi qo'shma sanoat zonasini tashkil qilish kabi amaliy hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Nashrlarda, shuningdek, O'zbekistonning Malayziyaning zamonaviy Ipak yo'lidagi muhim hamkori sifatidagi ahamiyati alohida ta'kidlangan. Maqolalardan birida O'zbekiston o'zining geografik joylashuvi tufayli Markaziy Osiyo bozorlariga kirish istagida bo'lgan Malayziya kompaniyalari uchun ko'prik vazifasini o'tashi mumkinligi qayd etilgan.

Bundan tashqari, "The Edge Malaysia" moliyaviy yangiliklar portalida O'zbekiston ishonchli va vaqt sinovidan o'tgan hamkor, deya e'tirof etildi. "Ikki davlat o'rtasidagi sheriklik nafaqat savdo va investitsiya, balki texnologik innovatsiyalar va sanoatni rivojlantirishni ham qamrab oladi", deb yozgan portal muxbiri.

Oliy darajadagi muzokaralarning yana bir muhim mavzusi turizm yo'nalishidagi aloqalarni rivojlantirish bo'ldi. "Penang Hyperlocal" va "Buletin Mutiara" nashrlarida O'zbekiston Turizm qo'mitasi vakillari ikki tomonlama sayyohlar almashinuvini kengaytirish

imkoniyatlarini muhokama qilish maqsadida amaliy safar bilan Malayziyaning Penang shtatiga borgan haqida yozildi.

"Bernama" MAA ma'lumotiga ko'ra, tomonlar qo'shma sayyohlik tashabbuslarini yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqda, bu esa mamlakatlar o'rtasida sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston, ayniqsa, boy madaniy va tarixiy merosini hisobga olgan holda, malayziyalik sayyohlar uchun istiqbolli manzil sifatida qaralmoqda. O'z navbatida, Malayziya o'zining kurortlari va rivojlangan infratuzilma imkoniyatlari bilan o'zbekistonlik sayyohlarni o'ziga faol jalb etayotir.

Ushbu mamlakat ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston Prezidentining Malayziyaga rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlari rivojida muhim bosqich bo'lgani yakdillik bilan ta'kidlanmoqda. Strategik sheriklik yo'lida ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risida qo'shma bayonot, iqtisodiy va turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga oid hujjatlar, shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi sheriklikni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shma rejalarni imzolangan - bularning barchasi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichidan dalolat beradi.

Malayziyaning nufuzli OAV xulosalarida "Tashrif nafaqat diplomatik aloqalarni mustahkamladi, balki muhim yo'nalishlarda O'zbekiston va Malayziya sherikligini yanada chuqurlashtirishga zamin yaratdi, bu esa ikki davlat uchun yangi istiqbollarni ochadi", deb qayd etildi.

"Dunyo" AA,
Kuala-Lumpur

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

OMBUDSMANNING 2024-YILDAGI FAOLIYATI KO'RIB CHIQLDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi tomonidan Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman)ning 2024-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda Ombudsman tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, insonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilgani qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida gi Qonun bilan Ombudsmaning inson huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash borasidagi vakolatlari kengaygani, jumladan, 14-moddaga muvofiq ilk bor Oliy Majlis palatalariga ma'ruza taqdim qilinarayotgani aytib o'tildi.

Ma'ruzada qayd etilishicha, 2024-yilda Ombudsman nomiga O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar fuqarolari hamda ombudsmanlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar soni 23 422 tani tashkil qilgan.

O'tgan yili Ombudsman tomonidan murojaatlarni o'rganish natijasida inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi qonunbuzilish holatlari, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan davlat organlari va idoralariga hamda mansabdor shaxslarga 182 ta taqdimnoma, talabnoma, ariza va da'vo arizalari hamda xulosa shaklidagi ta'sir choralarini kiritilgan. Qo'llanilgan ta'sir choralarini 2022-yildagiga nisbatan 35 foizga, 2023-yildagiga nisbatan

7 foizga oshib, o'tgan yilda ularning 76,9 foizi ijobiy hal qilingan. Hisobot yilida Ombudsman tomonidan tashkilotlar yoki mansabdor shaxslarga kiritilgan taqdimnomalarning 76 foizi ijobiy hal etilgan.

Ombudsman tomonidan mehnatga oid huquqlar bilan bog'liq murojaatlar o'rganilishi natijasida fuqarolarning ish haqi va mehnat munosabatlari bilan bog'liq to'lovlar bo'yicha 1 mlrd. 832,9 mln. so'm mablag'lar undirilgan.

Hisobot davrida Ombudsman davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar bilan o'zaro uzviy aloqada bo'lishi natijasida inson qadriini ulug'lash, har bir shaxsning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash yo'lidagi vazifalarning ijro etilishiga ham alohida e'tibor qaratgan.

Deputatlar Ombudsmaning o'tgan yildagi faoliyati yakunlari bo'yicha taqdim etgan ma'ruzasini ijobiy baholab, uning faoliyatini yanada takomillashtirish, fuqarolarning yangi tahrirdagi Konstitutsiya va boshqa qonunlarda kafolatlangan huquqlari, erkinliklarini ta'minlash bo'yicha qator taklif va tavsiyalar berdi.

Yig'ilishda deputatlar tomonidan berilgan savollarga tegishli javoblar olinib, Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman)ning 2024-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi ma'quullandi.

"Xalq so'zi".

Qonun tashabbuskoridan - quyi palataga

YOSHGA DOIR PENSIYANI PROAKTIV SHAKLDA TAYINLASH TARTIBI JORIY ETILADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasida nafaqalarni tayinlash hamda to'lash bilan bog'liq ishlarni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan "Davlat boji to'g'risida"gi, "Aholi bandlegi to'g'risida"gi qonunlarga nafaqalarni tayinlash va to'lash bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilmoqda. Ya'ni pensiya olish yoshiga to'lgan (erkaklar - 60 yosh, ayollar - 55 yosh) fuqarolarga yoshga doir pensiyasini ularning alohida murojaatini talab etmagan holda fuqaroning ish staji, ish haqi va boshqa ma'lumotlarini vazirlik hamda idoralarning axborot tizimlaridan olingan ma'lumotlar asosida bir kun muddatda proaktiv shaklda tayinlash tartibini joriy qilish belgilanmoqda.

Amaldagi tartibga ko'ra, fuqarolar belgilangan pensiya yoshiga to'lganidan so'ng pensiya tayinlashni so'rab yashash joyidagi Pensiya jamg'armasi bo'limiga, Davlat xizmatlari markaziga va Yagona

interaktiv davlat xizmatlari portalidan ro'yxatdan o'tib, so'rovnomanini to'ldirgan holda murojaat qiladi.

Qonun loyihasida fuqaro pensiya yoshiga yetib, ammo mehnat faoliyatini davom ettirish istagi bo'lganida proaktiv shaklda tayinlanadigan yoshga doir pensiyani rad qilish tartibini ham joriy etish nazarda tutilmoqda.

Qonun tashabbuskorlarining fikricha, belgilanayotgan normalar fuqarolarga pensiya ta'minoti bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmati sifatini oshirishga, ortiqcha byurokratik to'siqlar bartaraf etilishiga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi siyosiy partiyalar fraksiyalari muhokamasiga kiritish uchun tayyorlanmoqda.

"Xalq so'zi".

HAMKORLIKNING YANGI ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI OCHILADI

O'zbekiston va Malayziyaning savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy aloqalari yil sayin rivojlanib boryapti. Ikki xalq o'rtasidagi yagona din, mushtarak urf-odat va qadriyatlariga asoslangan do'stlik rishtalari tobora mustahkamlanmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim taklifiga binoan ushbu mamlakatga amalga oshirgan rasmiy tashrifi esa o'zaro hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi.



Davlatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik ko'p qirrali bo'lib, bunda ta'lim sohasidagi o'zaro aloqalar katta istiqbolga ega. Binobarin, Malayziya universitetlari xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallaydi.

Turli sohalarda singari O'zbekiston va Malayziya oliy ta'lim, fan hamda innovatsiyalar sohasidagi aloqalari bugungi kunda izchil va samarali davom etmoqda. Ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi tashrif va uchrashuvlari ta'lim hamda ilmiy hamkorlikning yangi yo'nalishlarini ochib, kadrlar tayyorlash yo'nalishlarida qo'shma loyihalarni amalga oshirishga turki berayotir.

Aytish joizki, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro maydonda integratsiyalashuvini ta'minlash bo'yicha ikki mamlakatning sa'y-harakatlari mushtarak. Rasmiy tashriflar doirasida oliy ta'lim muassasalari ishtirokida tashkil etilgan forum Malayziya universitetlari bilan sheriklik, ilmiy aloqalarni rivojlantirish

hamda talabalarga xalqaro bilimlar olish imkonini taqdim etmoqda.

Xususan, ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorlik so'nggi yillarda universitetlararo darajada jadal rivojlanayotir. Bu esa yurtimizda o'quv jarayonlari sifatini oshirish va universitetlar o'rtasida akademik almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yishga zamin yaratadi. Bugungi kunda O'zbekiston hamda Malayziya oliyoghlari o'rtasida yuzdan ortiq bilim, shartnoma hamda kelishuvlar amal qilaypti.

Shu bilan bir qatorda, Malayziyaning innovatsion o'quv metodlari va xalqaro tajribasi o'zbekistonlik talabalar hamda o'qituvchilar uchun juda muhim hisoblanib, bu mamlakatimiz ta'lim sifati hamda ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining 200 dan ortiq professor-o'qituvchilari malaka oshirish, amaliyot o'tash, turli sohalardagi o'quv

kurslarida qatnashish uchun Malayziya oliy ta'lim tashkilotlariga yuborilgan diqqatga sazovor.

Bu yo'nalishlardagi sa'y-harakatlar natijasida talabalarimiz uchun Malayziya oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish imkoniyatlari ham kengaydi. Ayniqsa, muhandislik, axborot texnologiyalari, tibbiyot va menejment sohaslaridagi ta'lim dasturlari talabalar o'rtasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu borada Malayziyaning O'zbekistondagi ta'lim forumlari hamda ko'rgazmalari muhim o'rin tutayotir. Natijada bugungi kunda mamlakatimizning 700 ga yaqin fuqarolari Malayziya oliy ta'lim muassasalarining turli yo'nalishlarida tahsil olaypti.

Malayziya universitetlari tomonidan O'zbekiston talabalarini uchun ajratilayotgan grant va stipendiyalar ham ta'lim sohasidagi aloqalarni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Ushbu grantlar orqali ko'plab yoshlarimiz xorijiy tajribani o'rganish hamda kelajakda yurtimizda zamonaviy bilimlarni qo'llash imkoniga ega bo'lisshayotir.

Ayni paytda amalga oshirilayotgan qo'shma ta'lim dasturlari va loyihalari ham kam emas. Talabalar almashinuvini hamda qo'shma magistratura va doktorantura dasturlari shulardan biridir.

Shuningdek, hamkorlik doirasida qo'shma ta'lim dasturlari hamda dual ta'lim tizimi joriy etilmoqda. Qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish o'zaro aloqalarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu borada muhandislik, axborot texnologiyalari, tibbiyot va menejment sohaslariga alohida e'tibor qaratilaypti.

Hozirgi kunda yurtimizning 4 ta oliy ta'lim muassasasi Malayziya universitetlari bilan hamkorlikda 5 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 3 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirmoqda. Bu sa'y-harakatlar ta'lim turizmini rivojlantirishda muhim qadam bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi sheriklikni yanada mustahkamlamoqda. Turizm, filologiya, maktabgacha ta'lim yo'nalishlarida talabalar xalqaro darajada zamonaviy bilimlarni o'zlashtirib, yangi O'zbekistonning istiqbolli mutaxassislari sifatida shakllanib borayotgani e'tiborga molikdir.

Qo'shma ta'lim dasturlari nafaqat O'zbekiston va Malayziya hamkorligini mustahkamlashga, balki ikki mamlakat yoshlari o'rtasida madaniy va ijtimoiy aloqalarni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Mazkur tizim talabalarga nazariy ta'lim va amaliyotni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Kelajakda dual ta'lim orqali talabalar zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish bilan

birga, o'zaro tajriba almashishadi. Bu esa ularning kelgusida ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Yurtimizda 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan O'zbekiston va Malayziya hamkorligida atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va uglerod izini kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilishi kutilmoqda.

Ayni yo'nalishdagi loyihalar doirasida qo'shma ilmiy laboratoriyalarni tashkil etish, oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston hamda Malayziya olimlari o'rtasida tajriba almashinuvini va amaliyotlar tashkil etilib, ilm-fan yutuqlarini o'zaro bo'lishish jarayonlari yo'lga qo'yilmoqda.

Ana shunday sa'y-harakatlar samarasi o'laroq kelgusida qo'shma onlayn kurslar yaratish, virtual o'quv platformalarini ishga tushirish hamda zamonaviy tadqiqot markazlarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Xususan, talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish ham e'zgu rejalardan biridir.

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik, pirovardida kelajak avlod uchun yanada keng imkoniyatlar e'lahini ochish bilan birga xalqaro maydondagi nufuzini ham oshirishi, shubhasiz.

Obidjon HAMIDOV,
Buxoro davlat universiteti
rektori, professor.

Tarix zarvarlari

AVLODLARGA ILHOM SARCHASHMASI

Jahon tarixida hech bir mutafakkir Alisher Navoiychalik ko'p binolar qurdirgan, me'mor san'atini zavq-shavq bilan ulug'lagan emas. Alisher Navoiy o'z daromadidan 360 dan ko'proq turli inshootlar bunyod ettirgan. Ulug' shoir binokorlikda Samarqand latofatidan, xususan, Mirzo Ulug'bek me'morchiligidan ilhomlangan. Ayni paytda o'zi ham keyingi avlodlarga ilhom sarchashmasiga aylangan.

Bunyodkorlikda buyuk mutafakkiri ustoz bilganlardan biri XVI asrning oxirgi choragi va XVII asrning birinchi yarmida yashab o'tgan Samarqand hukmdori Bahodir Yalangto'sh edi. U ham Alisher Navoiy kabi muhim inshootlar qurdirishda o'z daromadidan pul sarflagan. "Sherdor" va "Tillakori" madrasalarini bino qilgan.

Bahodir Yalangto'sh "Sherdor" madrasasi peshtoqiga sherlar va kiyik tasvirini tushirishi katta qahramonlik edi. Chunki o'sha davrdagi bid'atchilar inson va jonivorlar rasmini chizishni gunoh sanagan. Yalangto'sh vaziyatga yechim topish maqsadida Alisher Navoiy ijodiga yuzlanadi. Ma'lumki, o'z davrida hazrat Navoiy mo'yoqalam sohiblariga homiylik qilgan. O'zi qurdirgan binolarga turli hayvonlar tasvirini chizdirgan. Bunday jur'at Bahodir Yalangto'shga ham ilhom beradi.

Alisher Navoiy "qo'sh uslub" degan me'moriy ansamblning ijodkori sanaladi. U Saripulda Injil anhoiri yonida hashamatli "Xlosiya" madrasasi va unga yuzlanib turgan bag'oyat ko'kam "Xalosiya" xonaqosini qurdiradi. Bahodir Yalangto'sh ham Registon ansamblini tiklashda ushbu me'morchilik uslubidan foydalanadi. Registonda "Sherdor" madrasasini Ulug'bek madrasasiga qaragan holda bunyod ettiradi. Bu uslub keyinchalik yanada ommalashgan. Masalan, Hindiston hukmdori Shohjahon Tojmahal va uning qarshisida binolari shu uslub asosida qurdiradi.

Demak, buyuk shoirning me'morchilik rivojidadagi o'rni ham katta bo'lib, avlodlar uchun ibrat timsoliga aylangan.

Alisher Navoiy janjirband sher suratini chizgani ham tarixdan ma'lum. Ulug' daho Erkin MUSURMONOV, Samarqand davlat chet tillar instituti professori.

Kichik tadqiqot

"DEMANGIZ MUNIKI ONDIN TAMA' UZ..."

Hazrat Alisher Navoiy nainki kecha yoki bugun, balki barcha zamoning eng g'zal shoiri, ma'rifat ulashuvchi quyoshi, so'ziyu shaxsiyati bilan hammamizga o'rnak bo'la oladigan ibrat maktabi, desak, mubolag'a emas.

Shoimeng bezir she'rleri va ularning zamirida yotgan fikru g'oyalari, teran falsafiy muhohadalar so'zimiz tasdig'i. Misol uchun, quyidagi ruboiyga e'tibor qarataylik: **Ahbob dengizki, xonumondin tama' uz, Ne xonu mon, kavnu makondin tama' uz, Ne kavnu makon, jonu jahondin tama' uz, Lekin demangiz muniki ondin tama' uz.** Misralardan anglashiladiki, bizning yaqinlarimiz, qadrdonlarimiz misoli dengiz. Ular bizning ko'zimizni quvontiradi, og'ir kunlarimizda madad bo'ladi, bizga doim umid beradi, o'z maslahatlarini ham ayamaydi. Shu bilan birga, shoir ruboiyda birovdan nimadir kutish, tamagirlik kabi salbiy odatlarni qoralaydi. Ya'ni biz oilamizni, ro'zg'orimizni doim o'zimiz ta'minlashimiz shart. Yaqinlarimizdan biron narsa tama qilishga haqqimiz yo'q, faqat ularga berishimiz joiz.

Asarda "xonumon" so'zi insonning botirg'i ma'nosida ham keladi. Ya'ni inson o'z vujudidan tamagirlik hissini butunlay chiqarib tashlashi kerak. Xo'sh, nima uchun? Chunki ma'naviy olamga bundan narq katta, ya'ni hech narsa tama etmaydigan odam barcha narsaga o'zi erishishga harakat qiladi, ko'ngli ham g'ina-kuduratdan xoli bo'ladi.

Shoir butun olamdan, borliqdan tama qilmaslik haqida ham fikr bildiradi. Chunki dunyo oldida u bir o'z yaratq. "Joni jahon" birligi ba'zi lug'atlarda "jahon go'zali" deb izohlangan. Lekin bu yerda borliqdan-da ulkan joy ma'nosida kelyapti. Shoir idealidagi inson tamadan shu darajada pok bo'lishi kerak.

To'rtlikning oxirgi misrasi juda teran mazmunli ega. Ya'ni menga qanchalik pand-nasihat etsangiz, amal qilaman. Lekin hech qachon Undan – Allohdan tama qilma deb nasihat bermang, deydi. Darhaqiqat, biz butun hayotimiz davomida Yaratganning marhamati umidida yashaymiz. Bu, bir jihatdan, tamaga o'xshab ketsa-da, xayrli va halol yo'l'dagi tamadir. Chunki xolis yaxshiliklarning barchasi Allohning lutf-karami ila amalga oshiriladi. Odatda, biz yaxshilik qilgan odamimiz emas, Yaratgandan mukofot kutamiz. Ruboiyda ham aynan shu ma'no, bunday tamadan tiylimaslik so'raladi. Shundaygina biz bu dunyodagi odamlar borliqdan hech narsa umidvor bo'lmaymiz, ezgu amallarimizni faqat xolisona Alloh yo'lida bajaramiz.

Iroda ESHONXONOVA, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

ULUG' SHOIR JASORATI



Alisher Navoiy – o'zidan ulkan meros qoldirgan, badiiy so'z san'atini eng yuksak cho'qqilarga olib chiqqan buyuk san'atkor. Bundan olti asr narida yashab o'tgan bo'lsa-da, bugun ham insoniyatni qiynayotgan muammolarga uning asarlaridan javob topamiz. Shoir merosi tengsiz ummon kabi o'ziga tortaveradi, uni o'qib, uqgan sayin bu buyuk merosning yangidan-yangi qirralarini kashf etaveramiz.

olingan forsiy shoirlarga teng keladigan yolg'iz Lutfiydan boshqa kishi paydo bo'lmadi...". Alisher Navoiy nazdida sherga hamla qilish uchun sher bo'lish, ona tilning jozibasini ko'rsatish uchun urf bo'lgan tilda yaratilgan asarlardan-da go'zalroq, mukammalroq asar yaratish zarur edi.

Bu manmanlik yoxud kibr emas. Alisher Navoiy ayni shu asarida o'zini "tuproq", "faqir", "so'z ahli xirmonining boshqochisi", "so'z xazinasi poyloqchisi" deb ataydi. O'zining devonlari, "Xamsa'si", boshqa adabiy asarlari bilan Abdurahmon Jomiydek ustozining e'tirofiga sazovor bo'lgan, dovrug'i "Xitodan to Xuroson"ga yetgan bir paytda o'zini naqadar kamtar tutganini ko'ramiz.

Shoir o'zini qanchalik xokisor tutmasin, o'ziga va ona tiliga qat'iy ishonch uning har bir asari va satrida sezilib turadi. Shu tufayli ham butun boshli adabiy janrlarni isloh qiladi. Faqat janrlarni emas, ongni, tafakkurni yangiladi. Bu ulug' ishda hali ham davom etyapti. O'ziga ishongani uchun ham salafkari o'ttiz yilda bitgan shoh asarlarni, "Xamsa'dek durdonani agar Yaratgan quvvat bersa, o'ttiz oyda yozak olishini urg'ulaydi:

Ani derga bo'lsa qachon rag'batim, Erur oncha Haq lutfidin quvvatim. Ki, har necha nutq o'lsa kohilsaroy, Bitigaymen o'ttuz yilin o'ttuz oy.

Bu ijodkorning ham o'ziga, ham ona tilining imkoniyatiga beqiyos ishonchidir. "Agar dono hakam to'g'rilik bilan ko'z solib, burungi forsiy va so'nggi turkiyning go'zallik va nozikliklaridan bahra olib, har birining bahosi va darajasini aniqlagan vaqtida, umidim shunday va xayolimga bunday kelurki, so'zining martabasi yuqori darajadan quyig'a tushmas va bu tizmalarim yulduzlari eng oliy darajadan o'zga yerni egallamas", deya qat'iyat ko'rsatishida Alisher Navoiyga xos buyuk jasorat namoyon bo'ladi.

"Turkiy tilning to'liqligi shuncha dalillar bilan isbot qilingach, bu xalq orasidan paydo bo'lgan iste'dodli kishilar qobiliyat va iste'dodlarni o'z tillari turib boshqa til bilan yuzaga chiqarmasliklari va ishgah solmasliklari kerak edi. Agar ikki tilda aytishga qobiliyatli bo'lsa, o'z tillarida ko'proq va yana bir tilda ozroq aytisalar bo'lar edi".

Buyuk ajdodimiz turkiy tilning jozibadorligini, unda ajoyib so'z va iboralar ko'pligini, biroq go'zal tarzda, jozibali satrlarda ko'rsata olishning qiyinligi, shu sababli ijod olamiga endi kirib kelgan ijodkorlar bu kabi mushkulliklardan malolanib oson yo'lni tanlashini kuyunib qayd etadi.

Muallif o'zining "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoye ul-vasat", "Favoid ul-kibar" asarlari qay taxlit, qay maqsadda yuzaga kelganini bayon qilib, "Xamsa'ning yaralishiga to'xtaladi:

"Bu to'rt devon ovozasin chun rub'i maskunaga yetkurupmen, "Xamsa" panjasiga panja urupmen. Avvalkim, "Hayrat ul-abror" bog'ida tab'im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi "Maxzan ul-asor" idin boshimga durar sochibdur.

Yana chun "Farhod va Shirin" shabistoniga xayolim yuz tutubdur. Mir Xusrav dami "Shirin va Xusrav" o'tidin charog'imni yurutubdur. Yana chun "Layli va Majnun" vodisida ishqim po'ya urub, Xoju himmati "Gavharnoma"sida nisoriyona gavharlar yetkuruptur. Yana chun "Sab'ai Sayyora" rasadin zamirim bog'labdur, Ashraf "Haft paykar"ining yetti hurvashin peshkashimga yarog'labdur. Yana chun "Saddi Iskandariy" asosin xotirim muhandisi solibdur, Hazrati Maxdum "Xiradnoma"sidin ko'si isloh va imdod cholibdur". Bu asarlarni o'z tilida bitganidan, ona tilining imkoniyatlariga olamga tanitganidan cheksiz g'urur tuyadi.

Islom madaniyati, falsafasizis Alisher Navoiyni anglash mumkin emas. Biroq mutafakkir bobomiz merosi shu bilan chegaralanmaydi. Shoir islomiy e'tiqodga suyangan holda o'ziga xos bo'lgan jami adabiy va falsafiy qarashlarni sintez qila olgan, inson fitrati bilan bog'liq qarashlar cheksizligini, uning ildizlari insoniyat paydo bo'lgan davr, qadim tushunchalar va tasavvurlar bilan chambarchas bog'liqligini isbotlab bera olgan.

Alisher Navoiy qarashlari tasavvuf olamida tamomila yangicha bir qarash, uning yangi bir bosqichi, yangi bir yuksalishidir. Shubhasiz, tasavvuf borasida ulug' shoir o'z salaflaridan juda ilgari ketdi. Ona tilining imkoniyatlari

mamlakatlarni birlashtirdi – yaqqalam ayladi. Shuning uchun ham ulug' allomaning jasorati o'z ona tiliga muhabbati va uni yuksaklarga ko'targani bilan belgilanadi.

Alisher Navoiyning har bir asari jasorat timsolidir. Uning she'riyat ham, "Xamsa'si, ilmiy, tarixiy asarlari ham yuksak badiiy tafakkur

orqali tasavvufiy tushunchalarni, ramz, timsol, metaforalar, tasavvuf falsafasi sarhadlarini yanada kengaytirdi.

Shoir turkiy tafakkur evrilishlarini eng yorqin, eng ko'rkam ranglarda tasvirlab, yuksak pardalarda kuyladi. Turkiy xalqlar badiiy tafakkurini umiminsoniy badiiy tafakkuriga aylantira oldi.

"Xamsa" shunchaki beshta doston emas. Bu dostonlarning har biri puxta o'ylangan, har biri yaxlit bir hodisa va ayni paytda bir-birini to'ldiradigan bir tizimga solingan mukammal badiiy hodisa.

"Xamsa"ning "Hayrat ul-abror"dan boshlanib, "Saddi Iskandariy" bilan tugashida ham ramziy ma'no bor. Muallif bu badiiy mukammallik nuqtasida juda puxta o'ylab, yuksak



namunasidir. Buyuk ajdodimiz asarlari uning merosini o'rganish uchungina emas, balki o'sha davr adabiy muhiti, millat badiiy tafakkur tarixini o'rganishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy oymai jahonni o'z asarlarida "Jamshidi jom" deb atagan. Yoxud bo'limasam, "Farhod va Shirin"da Farhodning o'z safari davomida temir odam – robotga duch kelishi oradan necha asrlar o'tib yaratilgan robotlarni, "Sab'ai sayyor"dagi o'zi yurar taxtlar keyinchalik kashf etilgan avtomobillarni yodimizga soladi.

Folkloriga xos analar shoirning "Xamsa" dostonidagi "Sab'ai sayyor", "Farhod va Shirin" dostonlarida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

"Sab'ai sayyor"da yetti raqamiga va ranglarga alohida urg'u beriladi: yetti sayyora, yetti kun, yetti qash, yetti yo'lovchi, yetti hikoya va hokazo. Alisher Navoiy asarlaridagi raqamlar, ranglar, mifologik obrazlar talqinida biz xalq ijodiga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

Bundan necha ming yillar oldin ajdodlarimiz koinot, kelajak haqidagi orzularini e'taklar, dostonlar orqali ifodalagan. Ertak va dostonlarimizdagi uchar gilamlar, dunyoning narigi burchigidagi yoqealarni aks ettiradigan oymai jahon, olti oylik yo'lga bir zuma yetib boradigan sehrlil qush haqidagi tasavvurlari shunchaki xayol bo'lmagan. Buning o'z davri uchun qanchalik ahamiyatli, bugungi tilda aytadigan bo'lsak, innovatsion g'oya bo'lganini Navoiy asarlarini o'qib, anglab yetishimiz mumkin.

"Farhod va Shirin"dagi Hoqon, Farhod, Suqrot kabi obrazlarni biz xalq dostonlaridagi obrazlarga qiyoslasak, ajib bir uyg'unlik ko'ramiz. Bundan tashqari, Alisher Navoiy asari asosida baxshilarimiz "Farhod va Shirin" nomidagi dostonlarni kuylashgan. Xususan, Fozil Yo'ldosh o'g'lining "Farhod va Shirin" dostoni Alisher Navoiy ta'sirida yuzaga kelgan, xalq og'zaki ijodi qonuniyati asosida yaratilgan doston hisoblanadi.

Islom madaniyati, falsafasizis Alisher Navoiyni anglash mumkin emas. Biroq mutafakkir bobomiz merosi shu bilan chegaralanmaydi. Shoir islomiy e'tiqodga suyangan holda o'ziga xos bo'lgan jami adabiy va falsafiy qarashlarni sintez qila olgan, inson fitrati bilan bog'liq qarashlar cheksizligini, uning ildizlari insoniyat paydo bo'lgan davr, qadim tushunchalar va tasavvurlar bilan chambarchas bog'liqligini isbotlab bera olgan.

Alisher Navoiy qarashlari tasavvuf olamida tamomila yangicha bir qarash, uning yangi bir bosqichi, yangi bir yuksalishidir. Shubhasiz, tasavvuf borasida ulug' shoir o'z salaflaridan juda ilgari ketdi. Ona tilining imkoniyatlari

mahoratini namoyish etganing guvohi bo'lamiz. Iskandar vafoti oldi shunday vasiyat qiladi:

Chiqoring bir ilkimi tobutdin, Hamul nav'kim rishta yoqutdin. Ki el solib ul sori hayrat ko'zi, Ne hayrat ko'zi, balki ibrat ko'zi...

Sharqshunos olim N. Konrad aytganidek: "Agar Alisher birgina shu timsolni yaratganida ham biz baribir qarshimizda daho shoir turganini anglagan bo'lar edik".

Alisher Navoiy turkiy til, madaniyat va tafakkurning hosilasi. Chunki chinakam evrilishlar, tarixiy burilishlar, bugungi til bilan aytadigan bo'lsak, Renessanslar birinchi galda til va tafakkur bilan bog'liq.

Har ishniki qildi odamizod, Tafakkur birla bildi odamizod.

Alisher Navoiy o'z davrining farzandi, biroq u o'z davrininggina shoiri emas. U bugunning ham, kelajakning ham shoiri, faylasufi, tarixchisi, tilshunosi, tom ma'nodagi ziyolusidir. Fikrda, tafakkurda, badiiyatda Navoiy ko'tarilgan maqomga insoniyat hali yetib kelmadi. Yetib borish, bu merosni anglash, o'ziniq qilish, o'ziga singdirish esa har bir avlodning o'ziga bog'liq. Shoimeng olam va odam, inson qalbi va ruhiyati haqidagi fikrlari hamma davrlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etaveradi.

Alisher Navoiy Vatanda tug'ilib, Vatanni ulug'lab, Vatanga aylangan ijodkoridir. Ijodkor bo'lmoq – millat sha'nini yuksak ko'tarib, g'urur darg'asi bo'lmoq, degandir.

Olimlarimizdan biri Alisher Navoiyni turkiy adabiyotning poytaxti, deb atagandi. Zero, shoir asarlari badiiy, falsafiy, ilmiy jihatdan mukammal asarlarigina emas, balki bizning tafakkurimizga, ongimizga, shuurimizga kuch va quvvat beradigan, insonlarni, ellarni, elatlarni, xalqlarni biri-biriga birlashtiradigan ma'naviy makon hamdir.

Har kuni Alisher Navoiy asarlariga yuzlanishimiz, uning so'zlarini hayotimiz haqiqatiga aylantirishimiz kerak. Shunda ulug' bobomiz ruhi biz bilan doim birga bo'ladi, shunda biz millat sifatida ajdodlarga xos bo'lamiz. Bir bayt o'qiygimiz, bir satrni, albatta, o'zining samarasini beradi. Alisher Navoiy merosi shunday kuchga, shunday qudratga ega.

Mamlakatimiz rahbari uchunchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasini o'rtaga tashladi. Mana shu tamaddun poydevorini yaratishda, o'zimizni yangi taraqqiyoq davriga tayyorlashda Alisher Navoiydek allomalarining fikriga, asarlariga suyanishimiz lozim bo'ladi.

Jabbor ESHONQULOV, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi direktori, filologiya fanlari doktori, professor.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 242, 15 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR: Devonzona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummallaq qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohimani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi lamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir F. Bozorov. Musahhib S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.40 Topshirildi — 01.50 1 2 3 4 5 6